

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI
INGLIZ FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida

UDK 80.821.07.894.322 o'zb. (575.1)

Sadulloyeva Shohruza Valievnaning

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "UCHRASHUV" KONSEPTINING
SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

5A220102 – Lingvistika (Ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots.

Nazirova.Sh.O

Toshkent - 2015

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

ФАКУЛЬТЕТ ЗАРУБЕЖНОЙ ФИЛОЛОГИИ

КАФЕДРА АНГЛИЙСКОЙ ФИЛОЛОГИИ

На правах рукописи

УДК 80.821.07.894.322 узб. (575.1)

Садуллоева Шохруза Валиевна

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «ВСТРЕЧА» В
АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**5A220102 – Лингвистика (Английский язык)
Для получения академической степени магистра**

ДИССЕРТАЦИЯ

**Научный
руководитель:
к.ф.н., доц. Назирова Ш.О**

Ташкент - 2015

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED
AFTER MIRZO ULUGBEK
FACULTY OF FOREIGN PHILOLOGY
DEPARTMENT OF ENGLISH PHILOLOGY**

All rights reserved

UDK 80.821.07.894.322 uzb. (575.1)

Sadulloeva Shohruza Valievna

**SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT “MEETING” IN ENGLISH
AND UZBEK LANGUAGES**

**5A220102 – Linguistics (English language)
For being awarded with the academic Master’s degree**

DISSERTATION

Scientific advisor:

Ph. D., ass.prof Nazirova Sh.O

Tashkent – 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	----------

I BOB. INGLIZ TILIDA “MEETING” KONSEPTINING KONSEPTOSFERIK VA REPREZENTATIV O’ZIGA XOSLIKLARI

1.1 Konsept tushunchasining nazariy asoslari	9
1.2 Konseptni o’rganish metodlari	15
1.3 “Meeting” konseptining leksik-semantik maydoni	18
1.4 “Uchrashuv” konseptining leksik-semantik periferik komponentlari vositasida komparativ verbalizatsiyasi	24
I bob yuzasidan xulosalar	27

II BOB. INGLIZ VA O’ZBEK BADIY ADABIYOTIDA

“UCHRASHUV” KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK KOMPONENTLARINING REPREZENTATSIYASI

2.1 “Uchrashuv” konseptining ingliz badiiy adabiyotida semantik reprezentatsiyasi	29
2.2 Meeting konsepti, yadro leksemalari va uchrashuv nutq aktlarining ingliz badiiy adabiyotida aks etishi bo’yicha sxematik-statistik tahlili..	37
2.3 Uchrashuv konseptining o’zbek badiiy adabiyotida leksik-semantik dominant va referentlari	42
II bob yuzasidan xulosalar	50

III BOB. INGLIZ VA O’ZBEK PUBLITSISTIK MATNLARIDA “UCHRASHUV” KONSEPTINING SEMANTIK REPREZENTATSIYASI

3.1 Ingliz publitsistik matnlarida “meeting” konseptining “meet va meeting” yadro leksemalari vositasida semantik reprezentatsiyasi	54
3.2 “Meeting” konseptining ikkinchi darajali yadro leksemalarining ingliz publitsistik matnlarida semantik reprezentatsiyasi	62
3.3 O’zbek publitsistik matnlarida “uchrashuv” konseptining semantik reprezentatsiyasi	66
III bob yuzasidan xulosalar	75

XULOSA

SUMMARY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor vazifasiga aylandi. Xususan, yurtimizning jahon hamjamiyatidan muhim o'rin egallashi uchun yo'lga qo'yilayotgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy hamkorliklar chet tilini o'rganilishiga muhim turtki bo'lib kelmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 2012 yil, 10 dekabrda qabul qilgan "Chet tillarini o'qitishni yanada takomillashtirish" PQ-1875 qarori¹ mamlakatimizda hamma sohalarning rivojlanishi shu sohalarda ish yuritayotgan mutaxassis kadrlarning chet tillari bo'yicha bilim va malakalarning oshirilishiga, bu esa o'z o'rnida ingliz tili bo'yicha tadqiqotlar olib borilishining kengaytirilishiga asos bo'ladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida til birliklarining semantikasi, muayyan konseptning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarining tadqiqi juda ko'plab tadqiqot va ilmiy izlanishlarning asosiy mavzusi bo'lib hisoblanadi. Oxirgi o'n yillikda ham so'z va kontekst o'rtasidagi o'zaro aloqalar, fikr ifodasining turli vositalari, so'z yasalishi va grammatik ma'no, leksik birliklar ham ko'p o'rganilmoqda.

Lingvistikaning yangi yo'nalishi – lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu yo'nalishning o'zining shunday kategorial apparati mavjudki, uning markaziy obyekti konsept tushunchasi bo'lib hisoblanadi.

Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning har biri bu termin yoki tushunchasini turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Uni biron tushuncha haqida ideal, kulturologik shartli inson tasavvuridagi kartina (A.Vejbitskaya), mantiqiy kategoriya (Yu.I.Stepanov),

¹Karimov I.A. PQ-0875 sonli Chet tillarini yanada takomillashtirish to'g'risida Prezident qarori// <http://uza.uz/uz/documents/chet-tillarni-organish-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-tog'risida-10.12.2012-24841>.

amaliy falsafadagi bir tushuncha (N.D.Aryutunova), ko'p qatlamli tushuncha (V.I.Krasik) deb va boshqa olimlar tomonidan ham turlicha talqin qilingan.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi ham "meeting" konseptining semantik xususiyatlari, umuman aytganda, mazkur konseptning turli nuqtai nazarlardan o'zbek va ingliz tillaridagi aks etishi bo'lib, ishda konseptning mohiyati tegishli rejalar, ilmiy materiallar, badiiy va publitsistik matnlar asosida tadqiq va tahlil qilindi.

Ilmiy ishning tashkil qilinishi "meeting" konseptining mohiyatini izohidan boshlanadi. Bu kabi o'rganish natijalaridan konsept xususidagi konfliktiv muhosalar yechimini topish, konseptning semantik tarkibini aniqlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, til materiallari sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi syujet jihatidan bir-biriga biroz bo'lsada o'xshash romanlar tanlangan bo'lib, "meeting" konseptining bu romanlarda realizatsiyasi asosida konseptning ichki ma'noviy jihatlari o'rganib, har ikki tildagi romanlarda konseptning ahamiyati, funksiyalari, konseptning semantik tarkibida aniqlangan lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashga ham imkon beradi. Kundalik hayotda uchrashish, suxbatlashish kabi jarayonlarda ham ikki xalq vakillari o'rtasida uchrashuvda o'zini tutish me'yorlari, muloqot qoidalarini rivojlantirish va qayta to'ldirish uchun ham sotsiologik manbaa sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa bu borada "meeting" konseptining ingliz va o'zbek siyosiy-ijtimoiy-ma'muriy gazetalarida tahlil qilinishi ikki xalq vakillarining o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'muriy, moliyaviy va boshqa masalalar bo'yicha uchrashuvlarning yoritilishi tahlili, konseptning semantik xususiyatlarini bu borada to'liqroq ochib berilishi, rasmiy uchrashuvlarning ham me'yorlarining to'ldirilishiga imkon yaratadi. Lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha konseptning ingliz va o'zbek maqollari, milliy an'analar, milliy voqelikda aks etishi, leksik-semantik komponentlari bo'yicha konsept komponentlarining ot, sifat, fe'l so'z turkumiga mansub so'z va leksemalar orqali ifodalanishi, verbalizatsiya yuzasidan konseptning badiiy matnda aks etishi, konseptualizatsiya bo'yicha uchrashuvning

o'zbek va ingliz tillarida qanday turlari mavjudligi va ularning differensial assotsatsiyalari, konseptning deskriptiv jihatlari tadqiq va tahlil qilindi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunga qadar “meeting” konseptining mohiyati, uning verballashuvi, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlari ingliz va o'zbek tillaridagi reprezentatsiyasi qiyosiy usul bilan batafsil o'rganilmagan. Shuningdek, “meeting” konseptining semantik realizatsiyasi badiiy asar maanbalari hamda publitsistik materiallar asosida sistematik tartibda keng o'rganilmagan. Mavzuning bu doirada o'rganilishi esa ikki xalq vakillarining turli tartibdagi uchrashuvlarida lingvistik, sotsiologik manbaa sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy mavzuning o'rganilganlik darajasi. Konseptning tadqiq qilinishi bo'yicha juda ko'p tilshunoslar ilmiy ishlar olib borib, ba'zilar o'xshash, ba'zilar farqli qarashlarini bildirib kelishgan. Masalan, xorij olimlaridan S.A.Askoldov, N.D.Aryutunova, S.Lihacheva, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik kabilarkonseptterminigaizohkeltirish, Yu.S.Stepanova, A.P.Babushkin, I.A.Sternin kabilarkonsept strukturasi, tarkibi va xususiyatlarining tasniflanishi, G.G.Slishkin esa konseptning boshqa sohalar, fan tarmoqlari bilan aloqalarini, konseptning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish metodlarini o'rganish bo'yicha o'z xissalarini qo'shishgan. Bu borada atoqli o'zbek tilshunoslari A.A.Abduazizov, O'.Q.Yusupov, D.U.Ashurova, Sh.Safarov kabi olimlar ham kognitiv tilshunoslikda konsept va uning tutgan o'rni haqida, konsept tushunchasiga kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatning o'zaro bog'liqligini o'zlarining tadqiqotlarida asoslab berishgan

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi. Ingliz va o'zbek tillarida “meeting” konseptining leksik tarkibiga kiruvchi komponentlarning semantik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining vazifalari:

- “meeting/uchrashuv” konseptini izohlash va talqin qilish;
- “meeting/uchrashuv” konseptining asosiy leksemasini aniqlash;

-“meeting/uchrashuv” konseptini badiiy asarlardagi reprezentatsiyasi asosida semantik xususiyatlarini tushunilishi va ularni qiyoslash yordamida umumiy va spetsifik xususiyatlarini ochib berish;

-“meeting/uchrashuv” konseptining verbalizatsiyasi vositalari va manbaalarini tahlil qilish;

Ilmiy tadqiqot ishining obyekti. Ingliz va o'zbek tillarida “uchrashuv” konsepti.

Ilmiy tadqiqot ishining predmeti. Ingliz va o'zbek tillarida “uchrashuv” konseptining semantik xususiyatlari.

Ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan asosiy metodlar. Ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan lingvistik terminlarning izohlanishi uchun lug'at definitsiya analiz metodi, o'rganilgan konseptning semantik xususiyatlarini konseptning tarkibiy qismlarining tahlili asosida o'rganish uchun komponent-tahlil metodi (konsept komponentlarining bevosita va ko'chma ma'nolarining tahlili), o'rganilgan xususiyatlarni guruhlash, tasniflash uchun klassifikatsiya metodi, ma'lumotlarni statistik aks ettirish uchun statistik tahlil metodi, konseptni batafsil o'rganish uchun konseptual tahlil metodlarilaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Kognitiv tilshunoslik zahirida so'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda konseptning hali ochilmagan yangi qirralari, o'ziga xos xususiyatlari keng ko'lamda yoritib kelinmoqda. Shunga qaramay, kognitiv tilshunoslik va uning birligi bo'lmish konsept tushunchasining hali o'z tadqiqini kutayotgan xususiyatlari borligini inkor etib bo'lmaydi, jumladan, “uchrashuv” konseptining semantik xususiyatlarining o'rganilishi fikrimiz isbotidir. Bugungi kunga qadar, ikki til ya'ni ingliz va o'zbek tillarida mazkur konsept o'rtasidagi farq va o'xshash xususiyatlar hamda publitsistik matnlar va badiiy asar manbaalari yordamida qiyosiy va statistik tahlil qilinmagan. Bu esa o'z navbatida, ikki xalq vakillarining uchrashuvlarida bir-birini to'g'ri tushunib muomala qilinishiga zamin yaratadi.

Ilmiy tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati. “Uchrashuv” konseptining semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari ushbu sohada olib

boriladigan tadqiqot ishlarining nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot tahlillaridan yuzaga keladigan ilmiy xulosalar kognitiv tilshunoslik va o'zbek lingvomadaniyatining nazariy asoslarini yanada takomillashtiradi.

Ilmiy tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, xalqaro madaniy aloqa, tarjimashunoslik, xususan, badiiy matnlarni va publitsistik matnlarni tarjima qilishda foydalanilishi uning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqot ishining joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy xulosalaridan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, xorijiy filologiya fakulteti bakalavriat bosqichi o'quv rejasidagi "Umumiy va qiyosiy tilshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Stilistika va matn tahlili", "Tarjimaning lingvomadaniy asoslari", magistratura bosqichi o'quv rejasidagi "Kognitiv tilshunoslik" fanlarini o'qitish jarayonida foydalanishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishi natijalarining nashr qilinganlik darajasi. Mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy maqolalar tayyorlanib, nashr qilingan:

1. "Семантическое особенности концепта "meeting/учрашув" в английском и узбекском языках" – "Filologiya masalalari yoshlar talqinida" ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami;

2. "Linguacultural features of the concept "meeting-uchrashuv" in English and Uzbek languages" – "Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari" ilmiy maqolalar to'plami;

3. "Ingliz tilidagi "Siyosat" sohasidagi matnlarda "meeting" konseptining yadro leksemalarining semantik xususiyatlari" – "Yosh tadqiqotchilar" ilmiy maqolalari to'plami;

4. "Ingliz badiiy adabiyotida "Uchrashuv" konseptining leksik-semantik komponentlarining reprezentatsiyasi (Jeyn Eyr asari misolida)" – "Buyuk ipak yo'lida til va madaniyat" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami

Ilmiy tadqiqot ishining manbai sifatida asosan ingliz va o'zbek tillari izohli lug'atlari, badiiy, ilmiy va publitsistik turdagi matnlar tahlil uchun material sifatida qo'llanildi.

Ilmiy tadqiqot ishining hajmi va tuzilishi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 83 bet. Ilmiy ishning birinchi bobida tilshunos olimlarning konseptga tegishli nazariy xulosalari jamlanib sistematik natija hosil qilindi. Ikkinchi bobida konseptning semalari, birlamchi leksik komponentlari yordamida konseptning semantik xususiyatlarining tahlil qilinish metodlari haqida yoritildi. Uchinchi bobida tanlangan badiiy asarda ingliz tilida uchrashuv konseptining semantik xususiyatlari va o'zbek tilidagi shu xususiyatlarining umumiy va farqli jihatlari ochib berildi. Uchinchi bobda publitsistik matnlarda yuqoridagi xususiyatlarning umumiy va farqli jihatlari yoritildi. Bu xususiyatlarni aniqlash jarayonida badiiy asarlarda olingan natija kundalik hayotda ikki xalq vakillarining kundalik hayotida uchrashuv konseptining o'rni, ahamiyati, lisoniy birliklari aniqlanib, kundalik hayotda uchrashuv sotsial, lingvistik me'yorlarining tuzilishi uchun, gazeta manbalaridagi tahlil natijalari esa rasmiy uchrashuv, suxbat me'yorlari uchun sotsial-lingvistik manbaa bo'la oladi.

I BOB. INGLIZ TILIDA “MEETING” KONSEPTINING KONSEPTOSFERIK VA REPRESENTATIV O’ZIGA XOSLIKLARI

1.1. Konsept tushunchasining nazariy asoslari

Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqealari bilan bog’liqligini o’rganuvchi fandır. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo’lib, madaniyat va inson o’rtasidagi aloqa o’rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini 90 yillardan beri lingvistikada qo’llanilib kelinmoqda. Konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas.

Konseptlarning o’rganilishi bo’yicha eng atoqli tilshunoslaridan biri S.A.Askoldov hisoblanadi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o’zida aks ettiradigan birlikdir” deb izoh bergan¹

N.D.Aryutunova konseptni filosofiyadagi amaliy tushuncha bo’lib, milliy an’ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san’at obrazlari kabi ko’plab faktorlar va fikrlash jarayoni o’rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Konsept “inson va dunyo o’rtasida bog’liqlik o’rnatadigan madaniy qatlamni” o’zida namoyon qiladi.²

D.S.Lihacheva o’zining «Концептосфера русского языка» ilmiy ishida konseptni so’zning lug’at ma’nosi bilan insonning o’z milliy qarashlari bilan to’qnashuvi natijasida hosil bo’ladigan fikrlash jarayonining maxsuli deb ta’riflaydi³

S.G.Vorkachev bu tushunchani “Konsept – tildagi o’z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to’plamidir”

¹Асколдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. – М.: Академия, 1997. – с.269

²Арютунова Н.Д. Введение // Логический анализ текста. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993. - с. 3.

³Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. М.: Владос, 1995. – с.281

deydi. Bu madaniy tushuncha va tasavvurlarning verballashgan fikrni ham anglatadi. Konsept milliy til va milliy tafakkurga tegishli elementdir. Abstraktlikning yuqori bosqichida semantik shakllanish konseptning o'ziga xosligidir".¹

Bu bildirilgan fikr Yu.S.Stepanovning bildirgan fikriga juda yaqin, "konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, huddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi"²

Turli tilshunoslarning ilmiy ishlarini solishtirish natijasida ko'plab xususiy xulosalar qabul qilindi. Konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy o'ziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning kulturologiya, falsafa va kognitologiya aspektlari uchun yangi bosqich bo'lib xizmat qildi.

Lingvistik adabiyotlarda "konsept" tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud, shu sababli ham bu termin haqida juda ko'p izohlar mavjud, turli yondashuvlar natijasida esa konseptning tasniflari ham turlicha aniqlanadi.

Konsept turlari: Konsept o'z strukturasi ega. Oddiy muayyan fikr, butun konseptual struktura, abstraktlikning bosqichlarini tashkil qilgan tushuncha ham konsept funksiyasini bajarishi mumkin. O'z mazmuni va abstraktlik darajasiga ko'ra A.P.Babushkin konseptni quyidagi turlarga tasniflab chiqqan:

- 1) konkret obraz;
- 2) sxema;
- 3) tushuncha;
- 4) prototip
- 5) freym
- 6) senariy(skript),
- 7) geshtalt.

Konkret obraz — bu tasavvur yoki tafakkurdagi konkret predmet yoki voqelikning aks etishi.

¹ВоркачевС.Г. Концепт счастья в английском языке //Проблемы концептологии. - М.,2002 . с.4.

²СтепановЮ.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования - М.: Школа "Языки русской культуры", 1997.- с.40

Abstraktlik darajasi yuqoriroq bo'lgan konsept turi tasavvur (fikrlar kartinkasi) – turli predmet yoki voqeliklarning umumlashtirilgan obrazlari. Tasavvur konseptning ko'proq tashqi belgilariga asosan aks ettirgan turi hisoblanadi.

Sxema – umumlashgan makon-grafik obrazlari haqidagi tasavvurlar («daryo» ko'k lentaga qiyoslanadi).

Tushuncha — predmetning umumiy yoki konkret belgilari, obyektiv, mantiqiy xarakteristikalarini o'zida aks ettiradi. Tushuncha tasavvur yoki sxema asosida ikkinchi darajali begilardan bosqichli abstraktlashtirish natijasida yuzaga keladi.

Prototip – muayyan kategoriyali tipik predmet yoki voqelik haqida boshlang'ich tasavvurni yuzaga keltiruvchi birlikdir. Misol uchun ideal uy bekasi haqida tasavvur, avtomobil haqidagi tasavvur. Mazkur konseptlar kishiga olamdagi obyekt va voqeliklarni kategoriyalarga ajratishga yordam beradigan birlik sifatida xizmat qiladi.

Freym – xotiradagi assotsiatsiyalar. Konsept-freyumni “kadr” tushunchasi bilan solishtirish ham mumkin, chunki bu konsept turi muayyan konseptning ramkasiga tipik tarzda nima kirsam, shu belgilarni o'zi chig'oladi. Freymlar sxemasidan tashqari voqealar sxemasi degan tushuncha ham mavjud.

Ssenariy - faktor freymidan vaqt o'lchami orqali farq qiladi. Ssenariy o'zida voqealarning syujetli rivojlanishi haqidagi bilimlarni jamlaydi. Bu esa kishiga kundalik hayotiy hodisalarga diqqat qaratishga imkon beradi: misol uchun “uchrashuv” konsepti borasida, sevishganlar uchrashuvining restoranda sham yorug'idagi kechki ovqat, romantik musiqa bilan, biznes uchrashuvni ofis stoli atrofida hamkorlar bilan qahva yoki mineral suv bilan assotsiatsiyalashgan tasavvurda reprezentatsiyasi bu voqealar sxemasi, ya'ni ssenariy deb yuritiladi.

Geshtalt– xis-tuyg'u yoki ratsional komponentlarni o'zida jamlab konseptual struktura yoki butun bir obrazni aks ettirishi, situatsiyaning butun holda qabul qilinishi, abstraktlikning eng yuqori darajasi bilan bog'liq birlikdir. Geshtalt anglash va tushunish jarayonining boshlang'ich bosqichidir: biron

predmet, voqelik haqidagi qismlarga bo'linmagan bir butun tasavvurlar to'plami. Insonda konseptning har bir obykti va komponenti haqida yetarlicha bilim mavjud bo'lganida geshtalt shu bilimlar ichida eng yuqori pog'onadagi birlik bo'lib turadi. Geshtalt konsept turlarini bir birlikka jamlovchi konseptual sistema, konsept esa shu sistema ichiga kirgan qolgan obyektlarni aniqlashtiruvchi termin sifatida qo'llaniladi.

A.P.Babushkinning aniqlashicha, bu kabi konsept turlarining o'rtasidagi farq juda katta emas.Ularning har biri nisbatan o'zgaruvchanlik xossasiga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan qayta qayta shakllanishi ham mumkin. Erkin so'z birikmalari konsept kartinalar, sxemalar, freymalar, ssenariylarning shakllanishi uchun manba ya'ni material vazifasini o'taydi.¹

Konsept o'zining aniq strukturasi ega.Tadqiqotchilar strukturaning murakkabligi, konseptning ko'p qatlamli ekanligiga diqqat qilib, ular umuman olib qaraganda, ongli konstruktini tashkil qilishini aniqlashdi.Struktura konsept haqidagi ma'lumotni qayta shakllantirishga imkon beradi.Strukturasi ko'ra konseptlar ham turlicha bo'lganidek, ularning aniq klassifikatsiyasini ishlab chiqish tilshunoslar uchun haligacha yechim talab qiladigan muammoligicha qolmoqda.

Klassifikatsiyani strukturaga ahamiyat berib tuzish g'oyasini I.A.Sternin taklif qilgan.U uch turdagi konseptlarni ajratib ko'rsatgan: bir bosqichli – faqat bazali qatlamni o'z ichiga oladi; ko'p bosqichli: turli bosqichli bir necha kognitiv qatlamlarni o'z ichiga oladi; segmentli: bazali qatlamdan iborat bo'lib, abstraktlik darajasiga ko'ra bir xil hajmli segmentlardan tarkib topgan bo'ladi.²

I.A.Sternin konsept strukturasi bazali qatlamni ajratib ko'rsatib, unda konkret voqelikning belgilari, universal predmet-kod mavjudligini ham aniqlaydi.Qolaversa bu kod konseptni, shuningdek ba'zi qo'shimcha konseptual belgilarni fikr operatsiyalari uchun kodlashtiradi.Konseptning rivojlanishi, uning boshqa konseptlar bilan aloqasini o'zida jamlagan kognitiv qatlam konseptual

¹Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. - Воронеж, 1996. – с.54-55

²Стернин И.А. Методика исследования структуры концепта //Методологические проблемы современной лингвистики. - Воронеж , 2001. – с.59

belgilar orqali aks etib o'zining konseptual qatlamini to'ldirib boradi. Baza qatlami va qo'shimcha kognitiv belgilarning mosligi konseptning hajmini tashkil qilib, uning strukturasi aniqlaydi. Shunday qilib, bazadagi kognitiv qatlam obrazli yadro bilan har qanday konseptning ajralmas tarkibiy qismi sanaladi, ko'p sonli kognitiv qatlamlar esa konseptning strukturasi mavjud bo'lmasligi ham mumkin.

Konseptning strukturasi tushuncha, obrazli elementlar kiradi. Konseptning tushunchali elementida Yu.S.Stepanov quyidagi qatlam va komponentlarni alohida ko'rsatib o'tgan bo'lib, ular har bir konseptda mavjud: birinchi qatlam o'zida muhim belgini aks ettiradi, ikkinchi qatlam bitta yoki bir nechta qo'shimcha belgilarni, passiv belgilarni, uchinchi qatlam esa o'zida konseptning ichki shaklini o'zida aks ettiradi.

G.G.Slishkin tomonidan taklif qilingan konseptlar tipologiyasida konseptning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan qadriyatlarga asoslangan elementi haqida yaxshi ma'lumotlar berilgan. U bu borada quyidagi tasnifni kiritgan:

- individual (personal, muallif tomonidan ishlangan);
- mikrogruplangan (masalan, oila, do'stlar guruh);
- makrogruplangan (sotsial, rolga asoslangan, statusga asoslangan);
- etnik, umuminsoniy qadriyatlar

Olim ishlab chiqqan bu tasnifdagi omillar oppozitsion metod orqali tahlil qilinadi. Bu kriteriya bo'yicha quyidagi konseptlar borligi aniqlandi:

- Individual;
- Mikrogruplangan;
- Makrogruplangan;
- Milliy;
- Sivilizatsion;
- Umuminsoniy;¹

¹Слишкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании «дискурсе». М.: Азбуковник, 2000. – с.56

Konseptning ongli va struktur ko'p qatlamligi konseptni anglash protsedurasida o'z aksini topadi. Bu jarayonning birinchi bosqichida konseptning tashqi faktorlari, ikkinchi bosqichida konseptning ichki markazi, konsept-obrazi aks etadi. Uchinchi bosqichda obrazning metonimik konsentratsiyasi yuzaga kelib, bu so'zning simvolik ma'nosini shakllanishiga imkon beradi. To'rtinchi bosqichda mifologik ustanovka jarayoni borib, madaniyat paradigmasida simvolik xususiyatlar jonlantiriladi. Bu yerda esa so'zning ancha chuqurroq semantikasini tahlil qilish jarayoni kechadi.

Shunday qilib, mavjud tasniflar konseptlarning struktur va ma'noviy organizatsiyasining keng qamrovliligi va murakkabligidan dalolat beradi.

1.2. Konseptni o'rganish metodlari

Hozirgi kunga kelib konseptlarni o'rganishning bir necha metodikalari ishlab chiqildi. Bugungi kundagi tadqiqotlar uchun konseptual analizni amalga oshirish metod va usullari bir talaygina.

Konseptual tahlil qilishdan maqsad "madaniy ahamiyatga ega konseptlarning paradigmasini aniqlash va ularning konseptosferasini ta'riflashdir".¹ Bu kabi tadqiqotning obyekti alohida so'zlar, grammatik kategoriyalar yoki matnlar orqali beriladigan fikrlar, shuningdek katakorpusli so'z va leksemalarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi nafaqat o'rganilayotgan konseptni ta'riflash, uni strukturasi tuzish, asosiy belgilarini aniqlash imkonini beradi.

V.A. Maslova konseptning struktur xususiyatlariga asoslanib konseptual analizni amalga oshirish metodikalarini ishlab chiqdi. Yadro u yoki bu leksemaning lug'at ma'nosi bo'lib, konseptning mazmunini ochish va uning tildagi ifodasining spetsifikasini yoritishda juda katta imkoniyatlarga ega. Periferiya esa subyektiv taasurot, leksemaning turli pragmatik tarkibiy qismlari, konnotatsiyalar va assotsatsiyalardir.²

¹Карасик В.И. Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. - Волгоград, 1999. - с.69

²Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. - М., 2005. - с.98.

V.I.Karasikning fikriga ko'ra, konseptning ta'riflanishi – uning nomlanishi, unga yaqin ma'no kasb etuvchi birliklarni izohlash bo'yicha ilmiy tadqiqot jarayonidir:

- 1) Definitsiya berish- ma'noviy belgilarining aniqlanishi;
- 2) Kontekstual analiz – assotsiativ bog'liq ma'noviy belgilarning ajratib ko'rsatilishi;
- 3) Etimologik tahlil;
- 4) Paremiologik tahlil;
- 5) Intervyular, anketalar, kommentlar olish.¹

Konseptlarning tahliliga turlicha yondashuvlar, ularni ta'riflashning turli yo'llari mavjud. Quyidagi metodikalar nisbatan ko'proq qo'llaniladi:

1. Kalit so'zning sema tarkibining aniqlanishi.

Turli izohli lug'atlarda konseptning leksik reprezentatsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek diaxron tahlil ham juda ko'p olimlar tomonidan qo'llaniladi: Leksemaning kelib chiqishi haqidagi etimologik ma'lumotlarning to'planishi.

2. Turli hajm va turdagi u yoki bu konseptni verballashtiruvchi leksik paradigmaning tahlili:

a) Kalit so'zning sinonimik qatori. Bunday tahlil ma'nosi yaqin so'zlar bilan kalit so'zni solishtirib, konseptning differensial belgilarini aniqlash;

b) kalit so'zning leksik-semantik, leksik-frazeologik, assotsiativ-semantik maydonining tahlili. Bu metod nafaqat kalit so'zga sinonimlar, balki antonim, giperonimlar, maydonning yadro va periferiyasini tahlil qilishni ham taqozo qiladi;

d) Kalit so'zning derivatsion maydonining tahlili. Kalit leksemaning derivatsion tahlili, ajratilgan derivativlar semantikasi o'rganilayotgan konseptning qo'shimcha kognitiv belgilarini aniqlashga imkon beradi.

3. Paremiya va aforizmlar materialining tahlili.

Til konseptosferasini tadqiq qilishda bu metoddan foydalanuvchilar mos konseptlarning milliy-madaniy o'ziga xosligi, u yoki bu madaniyat vakilining

¹Karasik V.I. Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. - Волгоград, 1999. – с.131.

konseptosferasida mutanosib konseptlarning spetsifikasi va mazmunining aks etishini o'rganishadi.

4. Konseptning so'z-reprezentlarining leksik mosligining tahlili. Bu kabi tahlil odatda badiiy, publisistik matnlar materiali asosida olib borilib, konsept tarkibida simvolik ma'no kasb etadigan belgilarni aniqlashga yordam beradi.¹

Konsept mazmunini tariflashga eksperimental metodikalar juda samaralidir.

1. Erkin assotsiativ eksperiment metodi.

Bu metod shunisi bilan muhimki, bunda biron fikrni ifoda qilish uchun miyaga kelgan stimul so'zlar bilan fikrni ifodalash eksperiment testi deb olinadi. Bu konsept belgilarini topishda juda ko'p yordam beradi. Reaksiyaning chastotasi esa konseptning aktual yoki noaktual ekanligini bildirib turadi.

2. Retseptiv eksperiment metodi.

Eksperimentning maqsadi – bilim, til birligining tushunilishini tadqiq qilish. Bunda esa turli xil ko'rinishdagi metodlar qo'llanilishi mumkin. (Masalan, eksperiment asosida kuzatilayotgan subyekt, ya'ni shaxsdan biron konsept-so'zga ta'rif berilishi so'raladi, yoki shu konsept so'zga, mazmunan zid antonimik so'zlarni aytish, vizual obrazini tasvirlash so'raladi)²

Konseptni o'rganish uchun qanday turdagi metod tanlanmasin, agar uning reprezentatsiyasi keng qamrovda ko'rib chiqilsa, bu o'rganilayotgan konseptning mazmuni va strukturasi kengroq tasavvur qilishga yordam beradi.

¹СтернинИ.А.,РороваZ.D. Некоторые проблемы выявления национальной специфики языка. Воронеж, 2002. – с.82

² Маслова В. А. Лингвокультурология. —Москва, 2002. –с.85

1.3. “Meeting” konseptining leksik-semantik maydoni

“Meeting” konseptini verballashtiradigan leksik birliklar ustida bir qator tahlillar olib borildi.

Odatga ko’ra, konsept strukturasi yadro va periferiya (yaqin va uzoq) mavjudligi ma’lum. Materialning tahlili protsedurasi bir necha bosqich asosida o’tadi:

1 bosqich- o’rganilayotgan konseptning tariflanishi;

2 bosqich - tilda kalit so’zning belgilanishi;

3bosqich - sinonimlar, kalit so’zdagi derivativlarning tahlili orqali qo’shimcha konseptual ma’nolarning aniqlanishi;

“Meeting” konseptining fe’l so’z turkumiga mansub komponentlarining semantik maydonining yadrosi ingliz tilida quyidagilarni tashkil etadi:

“to see somebody”

“to visit somebody”

“to meet somebody”

“to get introduced with somebody”

“to date” (yigit va qiz uchrashuvi ma’nosida)

“to come across” (tasodifiy uchrashib qolish ma’nosida).

“Meeting” konseptining fe’l so’z turkumiga mansub reprezentantlarining yadro maydonining aniqlanishi muhim masaladir, chunki yadro fe’llarning leksik-semantik xususiyatlari o’zaro bog’liq sistemani ko’rsatib, meeting fe’llarini adekvat darajada interpretatsiya qilish uchun asos bo’lib xizmat qiladi, chunki fe’l so’z turkumiga mansub bu reprezentantlar o’rganilayotgan konseptning periferiya zonasini egallaydi.

Ingliz tilida “meeting” konsepti “to meet” leksemi orqali konsept yadrosini tashkil qiladi.

Konseptual belgilarni aniqlash uchun “to meet” fe’lining yaqin periferiyalarini ko’zdan kechirib chiqishga to’g’ri keladi. Tahlil va o’rganishlar natijasida bu leksema uchta semaga ega ekanligi tasdiqlandi:

Tanishmoq:

“to meet” – to see somebody for the first time

Uchrashmoq (aniq maqsadda):

To meet business partners; to meet friends at a party;

Uchratmoq (ko’rishib qolmoq ma’nosida);

To meet an old friend;

To meet shundayqilib, asosan “ko’rmoq, uchratmoq” tushunchalarini aks ettiradi.

Shuningdek, “meeting” konseptining mavjud semalaridan tashqari sinonim so’zlar orqali ham reprezentatsiyasi ko’rib chiqilgan bo’lib, ular juda keng qamrovli ekanligi tasdiqlandi.

To visit somebody- bu kimnidir ko’rishga tegishli joyga tashrif buyurish degan ma’noni anglatadi;

O’zbek tilida - ... ni ko’rish uchun tashrif buyurmoq;

To see somebody – bu kimnidir biron joyda, yoki biron hodisa tufayli ko’rishni anglatadi;

O’zbek tilida - ...ni ko’rmoq

To come across with somebody – bu kim bilandir aniq maqsadga ko’ra emas, balki tasodifiy tarzda ko’rishib qolishni bildiradi;

O’zbek tilida - ...ni uchratib qolmoq;

To go to see somebody –bu ham “to visit” so’ziga sinonim bo’lib, ko’proq kundalik so’zlashuv uslubiga oiddir;

O’zbek tilida - ...ni ko’rishga bormoq;

To face somebody – bu so’z ko’pincha negativ konnotatsiyasida qo’llanilib, biron, hodisa, predmet yoki shaxsga duch kelmoq degan ma’noni beradi;

O’zbek tilida - ...duch kelmoq;

To date somebody - sevgi ma'nosida ko'rishmoq;

O'zbek tilida - ...bilan uchrashuvga chiqmoq;

Shuningdek, "meeting" konsept-so'zi o'zining shu, ot so'z turkumiga mansub formasi ham boshqa so'z turkumiga mansub so'zlar bilan qo'llanilib, konseptning leksik-semantik maydonini qay darajada boyitganini ham tasdiqlash mumkin:

To arrange a meeting – uchrashuvni tashkillashtirmoq;

To plan a meeting – uchrashuv rejalashtirmoq;

To hold a meeting – uchrashuv o'tkazmoq;

To postpone a meeting – uchrashuvni keyinga qoldirmoq;

To cancel the meeting – uchrashuvni bekor qilmoq;

To appoint a meeting – uchrashuvni belgilamoq;

Bundan tashqari *to organize, to have, to adjourn, to be late for, to delay, to remember + a meeting* kabi leksik-semantik birliklar ham aniqlangan bo'lib, yuqorida qayd etilganlar bu kabi birliklarning statistik ma'lumotlarga ko'ra eng ko'p qo'llaniladigan variantlari hisoblanadi.

Bundan tashqari "meeting" so'zining o'zi ot so'z turkumiga mansub bo'lishiga qaramasdan, ba'zi so'zlar bilan birga kelib, sifat so'z turkumiga ko'chishi ham mumkin: *meeting date, meeting place, meeting time, meeting point, meeting ground*¹.

Yana shunday hollar ham uchraydiki, "meeting" so'zi tegishli sifat so'z turkumiga mansub so'zlar bilan ham kelib, farqli ma'no hosil qilishi mumkin:

Annual meeting, conference meeting, sports meeting, congress meeting, town meeting, general meeting, official meeting, informal meeting, friendly meeting, romantic meeting, goodbye-meeting, hello-meeting.

Shuningdek, "meeting" konseptining boshqa leksik semantik xususiyatlari va reprezentant birliklarini aniqlash uchun bir necha ommabop monolingual lug'atlar o'rganildi. Ularning natijasida ham bir qancha produktiv xulosalar qabul qilindi. Misol uchun, Thesaurus lug'atida:

¹<http://www.macmillandictionary.com/us/dictionary/american/meeting>

“Meeting” soʻziga “a gathering, a conference” deb taʼrif berilgan. Shuningdek, unga nisbatan sinonimik munosabatdagi bir qator soʻz va leksemalar ham keltirilgan:

Competition	Showdown	Call
Confrontation	Talk	Company
Contest	Affair	Conclave
Convention	Assemblage	Concourse
Date	Assembly	Confab
Encounter	Assignment	Congregation
Reunion	Audience	Conflict
Session	Bunch	Congress
Convocation	Meet	Turnout
Engagement	Parley	Cattle call
Gang	Powwow	Concursion
Huddle	Rally	Get-together
Introduction	Rendezvous	One on one

Bundan tashqari “meeting” soʻziga antonim sifatida *calm*, *devison*, *separation* soʻzlari berilgan.¹

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, “meeting” soʻziga thesaurus lugʻatida taʼrif faqat qandaydir shaxslarning yigʻilishi (gathering), yoki konferensiya (conference) deb tarif berilgan. Unda nisbatan berilgan sinonim soʻzlar esa koʻchma maʼnodagi (bunch, one on one), turli kontekst uchun qoʻllaniladigan (rally, contest, convocation), jargon soʻzlar (one on one, gang), rasmiy uslubga xos soʻzlar (reunion, encounter), siyosiy konnotatsiyaga ega (assembly, congress va) leksemalar sifatida berilgan.

Macmillan English lugʻatida ham “meeting” soʻziga taʼrif berilgan boʻlib, bu taʼrifda ham bu konseptga rasmiy yigʻin nuqtai nazaridan qaralgan:

¹<http://www.thesaurus.com/browse/meeting>

an occasion when people gather to discuss things and make decisions, either person or using phones, the Internet, etc.

Huddi shu tarifga relevantlik asosida “to meet” so’zining predloglar vositasida hosil qiladigan turg’un birikmalariga misollar ham keltirilgan:

Meeting on/about:

They organized meetings on a number of important political issues.

Meeting with:

She will raise the question at her meeting with the ambassador

Hold a meeting:

A meeting was held to discuss our future.

Attend a meeting:

North American leaders attended a meeting on air pollution.

Shuningdek, “meeting” so’zining, ikkinchi, uchinchi va darajali ma’nolarining izohi keltirilgan bo’lib “meeting” raqib komanda yoki sport o’yini qatnashchilarning uchrashuvi deb izohlanadi:

a competition between two teams or players

“a meet” bu sport o’yinchilari bellashadigan maydondir:

a meet at which teams compete against each other

Shuningdek, “meeting” so’zi bir vaqtning o’zida diniy jamoaning ko’rsatadigan xizmatini ham bildiradi:

a religious service of some groups, especially Quakers

endi esa, ushbu lug’atning “meeting” so’zi bilan relevant boshqa stilistik birliklarga berilgan izohlarini ko’rib chiqish lozim:

FORMAL: the people involved in a meeting

I reported to the meeting on my progress.

Bu o’rinda “meeting” so’zi metonimiya vazifasini bajarib kelmoqda. Negaki, uchrashuvdagi kishilar o’rnida bu so’zning qo’llanilishi metonimik hodisadir.

Shuningdek, “meeting” so’zi vositasida psixologiya sohasida keng qo’llaniladigan tasviriy ifoda ham mavjud:

A meeting of minds

A meeting of ideas¹

Bu o'rinda g'oyalar yoki fikrlar tenglashuvi, ularning bir biriga duch kelishi, bir xil bo'lib qolishi hodisasi mazkur tasviriy ifoda orqali izohlangan.

Ko'rinib turganidek, bir necha monolingual lug'atlar ko'rib chiqilganida, "meeting" so'ziga rasmiy uchrashuv, yig'in ma'nosida qaralgani oydinlashdi. Keltirilgan metafora, metonimiya va boshqa stilistik birliklar ham rasmiy uchrashuv konnotatsiyasi nuqtai nazaridan qo'llaniladi.

1.4 "Uchrashuv" konseptining leksik-semantik periferik komponentlari vositasida komparativ verbalizatsiyasi

Ingliz va o'zbek tillaridagi "uchrashuv" konseptining komponentlari periferik va leksik-semantik darajada olib qaralsa, ot, fe'l, sifat, ravish so'z turkumlari misolida analiz qilinishi mumkin.

Ot so'z turkumiga mansub "uchrashuv" konseptining o'zbek va ingliz tilidagi periferik komponentlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Meeting rasmiy uchrashuv aktual va kontekstual ma'nosiga ega bo'lishi:

Ingliz tilida	O'zbek tilida
<i>Formal meeting</i>	<i>Rasmiy uchrashuv</i>
<i>Delegation meeting</i>	<i>Delegatsiya bilan uchrashuv</i>
<i>Parliament meeting</i>	<i>Parlament uchrashuvi</i>
<i>Conference meeting</i>	<i>Konferensiya yig'ini</i>

Delegation meeting yadro komponentining *delegatsiya bilan uchrashuv* komponenti bilan struktur farqli xususiyati, o'zbek tilidagi komponentda hokim so'zning tobe' so'zga "bilan" komakchisi bilan bog'lanadi. *Conference meeting* va *Konferensiya yig'ini* esa konsept-so'zning o'zbek tilidagi invariantda sinonim so'z bilan ifodalanadi. Demak, rasmiy uchrashuv doirasidagi konseptosferada periferik komponentlarning bittasi struktur, ikkinchisi esa leksik-uslubiy xususiyatlar bilan farqlidir.

¹<http://www.macmillandictionary.com/us/dictionary/american/meeting>

Meeting biznes uchrashuv ma'nosini anglatib kelsa:

<i>Business meeting</i>	<i>Bizness uchrashuv</i>
<i>Meeting of shareholders</i>	<i>Aksiyadorlar majlisi</i>
<i>Meeting of cooperatives</i>	<i>Kooperativlar yig'ini</i>

Meeting konseptining *yig'in*, *majlis*, *kishilarning bir maqsadda yig'ilishib suxbatlashishi* kabi assotsiativ ma'nosi tufayli konsept *biznes* bo'yicha uchrashuv aktual va kontekstual ma'nosini ifoda etganligi o'zbek va ingliz tillarida solishtirilganida, ikki xil leksik-uslubiy farqlilik: *meeting of shareholders-aksiyadorlar majlisi*, *meeting of cooperatives – kooperativlar yig'ini* aniqlandi.

Meeting konseptining o'quv-ijtimoiy ishlar tematikasi bo'yicha ot so'z turkumiga mansub yadro komponentlari vositasida leksik-semantik verbalizatsiyasi uch xil leksik-uslubiy farq bilan ifodalanadi:

Leaders' meeting	Liderlar uchrashuvi
Parental meeting	Ota-onalar majlisi
Class meeting	Sinf majlisi
General meeting	Umumiy yig'in

Meeting konseptining shaxsiy maqsadlar bo'yicha ot so'z turkumiga mansub so'zlar orqali verballashuvi ingliz tilida bir holatda *see-and-talk* o'zbek tilida ikki holatda *do'stona bordi-keldi (gashtak)* va *sovchilik orqali uchrashu* vda lingvomadaniy xususiyatlarga ega. Bunda faqat *see-and-talk* va *gashtak* yadro komponentlarigina parallel funksional ma'noni aks ettiradi. Lekin reprezentativ hususiyatlariga ko'ra, *gashtak* galma-galdan do'stlarning o'rtaga pul tashlab, goh birining, gohi kkinchisining uyida, yoki choyxonalarda yig'ilishi bo'lsa, ingliz tilida kafe, uyda, barlar kabi joylarda suxbatlashish uchun yig'ilishlarini bildiradi. Ingliz tilida ikki holatda, o'zbek tilida ham ikki holatda yadro-komponentlarning neologizm orqali realizatsiyasi kuzatildi: *See and chat on Facebook / whatsapp-Facebook* yoki *vatsapda gaplashish* va *Skype date–Skaypda ko'rishish*:

<i>Friendly visit</i>	<i>Do'stona bordi-keldi</i>
<i>See-and-talk</i>	<i>gap, gashtak</i>
<i>Date</i>	<i>Yigit-qiz uchrashuvi</i>
<i>Blind date</i>	<i>Sovchilik orqali uchrashuv</i>
<i>See and chat on Facebook / whatsapp</i>	<i>Facebook yoki vatsapda gaplashish</i>
<i>Skype date</i>	<i>Skaypda ko'rishish</i>

Kutilmagan ko'rishib qolish, rejalashtirilmagan uchrashuvlar bo'yicha *meeting* yadro komponentlarining leksik-semantik realizatsiyasida esa bir holatda leksik-uslubiy farq *first time meeting* – *birinchi tanishuv* (tanishuv so'zining qo'llanilishi), boshqa bir holatda ingliz tilida sinonimik-referent orqali verballashuv aniqlandi: *unexpected encounter* (encounter so'zi uchrashuv konseptining sinonimik-referenti):

<i>First-time meeting</i>	<i>Birinchi tanishuv</i>
<i>Unexpected encounter</i>	<i>Kutilmagan uchrashuv</i>

Sifat so'z turkumining tobe'lik munosabatlari vositasida *meeting* konsept-so'zining ingliz tilidagi birikmalari ham o'zbek tilidagi invariantlar bilan solishtirilib,

annual meeting – *har yilgi an'anaviy uchrashuv*

conference meeting – *konferensiya anjumani* – leksik-uslubiy farqlar aniqlandi;

sports meeting – *sport bellashuvi*

congress meeting – *congress yig'ini*

town meeting - *shahar yig'ini*

general meeting – *umumiy yig'in*

official meeting - *rasmiy uchrashuv*

informal meeting – *norasmiy uchrashuv* - leksik-terminologik farqlar aniqlandi;

friendly meeting - *do'stona uchrashuv*

romantic meeting – *romantik uchrashuv*

goodbye-meeting – hayrlashuv

hello-meeting – tanishuv – leksik uslubiy farqlar aniqlandi.

I BOB BO'YICHA XULOSA

“Uchrashuv” konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi leksik-semantik maydonlar bo'yicha verbalizatsiyasi qiyosiy tahlil asosida “uchrashuv” konseptining yadro leksema-komponentlarining leksik-semantik maydonda konseptni aks ettirishiga ko'ra o'rganildi.

Qiyoslangan ikki tilda “uchrashuv” konseptini aks ettiruvchi yadro leksemalarining semali tarkibi ingliz tilida ot so'z turkumiga mansub “meeting”, o'zbek tilida “uchrashuv” so'zlaridan anglashiladi.

Etimologik xarakteristikasiga ko'ra har ikki tildagi konseptning yadro leksemasi bir-biriga bog'liq emas, lekin birlamchi va ikkilamchi ma'nolari, aniq maqsadda ko'rishish va tasodifan ko'rishish ma'nolari yuzasidan qisman o'xshashlikka ega.

“Meeting” konseptining fe'l so'z turkumiga mansub komponentlarining semantik maydonining yadrosi ingliz tilida oltita ekanligi ma'lum bo'ldi: “to see somebody”, “to visit somebody”, “to meet somebody”, “to get introduced with somebody”, “to date” (yigit va qiz uchrashuvi ma'nosida) va “to come across” (tasodifiy uchrashib qolish ma'nosida), fe'l so'z turkumiga mansub bu reprezentantlar o'rganilayotgan konseptning periferiya zonasini egallaydi. Konseptual belgilarni aniqlash uchun “to meet” fe'lining yaqin periferiyalarini ko'zdan kechirilib, bu leksema uchta semaga ega ekanligi tasdiqlandi:

Tanishmoq: “to meet” – *to see somebody for the first time*, Uchrashmoq (aniq maqsadda): *to meet business partners; to meet friends at a party*, Uchratmoq (ko'rishib qolmoq ma'nosida): *to meet an old friend*.

To meet shunday qilib, asosan “ko'rmoq, uchratmoq” tushunchalarini aks ettiradi.

Shuningdek, “meeting” konseptining mavjud semalaridan tashqari sinonim soʻzlar orqali ham reprezentatsiyasi koʻrib chiqilgan boʻlib, ular juda keng qamrovli ekanligi tasdiqlandi. Birinchidan, *to visit somebody, to see somebody, to come across with somebody, to go to see somebody, to face somebody, to date somebody*.

Meeting soʻzi bilan ingliz tilida birikib keluvchi feʼl soʻz turkumiga oid referentlar asosan uchrashuvga nisbatan qilinadigan xatti-harakatlar, belgilamoq, boshlamoq, kelmoq, qoldirmoq, kech boshlamoq, bekor qilmoq larni tashkil qildi.

Bundan tashqari “meeting” soʻzining oʻzi ot soʻz turkumiga mansub boʻlishiga qaramasdan, baʼzi soʻzlar bilan birga kelib, sifat soʻz turmiga koʻchishi ham mumkin: *meeting date, meeting place, meeting time, meeting point, meeting ground* va hk.

Lugʻatlarda aks etishi boʻyicha tahlil natijalarining koʻrsatishicha, thesaurus lugʻatida meeting deganda asosan kishilarning biron maqsadda uchrashishi, yigʻilishi tushuniladi. Shuningdek, sinonim keltirish borasida shu lugʻatning oʻzida “meeting” soʻzining kishilarning yigʻilishi maʼnosidan kelib chiqib, *concourse, contest, competition* singari 40 xil sinonim, meeting soʻzining antonimi sifatida ajralish konnotatsiyasiga koʻra 3 xil antonim soʻzlar berilgan.

Macmillan lugʻatida esa izoh, antonim va sinonim-representantlardan tashqari meeting konseptining assotsiativ sinekdoxa, metonimiya va tasviriy ifodalari ham keltirilgan.

Semantik nuqtai nazardan har ikki tildagi konsept biznes, rasmiy, romantik uchrashuv boʻyicha leksik-uslubiy, terminologik jihatdan ham bir-biriga mutanosibdir. Doʻstona uchrashuv boʻyicha solishtirish natijasida, lingvokulturologik, neologik xususiyatlar, kutilmagan uchrashuvlar boʻyicha esa sinonimik referentlar mavjudligi aniqlandi.

**II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA
“UCHRASHUV”KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK
KOMPONENTLARINING REPRESENTATSIYASI**

**2.1. “Uchrashuv” konseptining ingliz badiiy adabiyotida semantik
representatsiyasi**

Ingliz badiiy adabiyotining klassik janrdagi namunaridan biri bo'lgan Sharlotta Bronte qalamiga mansub “Jeyn Eyr” asarida “uchrashuv” ya'ni “meeting” konseptining yadro leksemalar, semalari – *meet, see, meeting, seeing* formalarda berilishi bo'yicha o'rganib chiqildi.

Tahlil natijasida *see, meet, meeting, visit* yadro leksemasi vositasida quyidagi implikatsiyalarning representatsiyasi aniqlandi:

- personajlarning birinchi uchrashuvi;*
- personajlarning taqdiri azal tufayli birinchi tanishuvi;*
- personajlarning oxirgi vidolashuv uchrashuvi;*
- personajning uchrashuvdan zavq olishi;*
- personajning uchrashuvdan hayratlanishi;*
- personajning uchrashuvdan qo'rqish va hayajonlanish xissi;*
- personajning uchrashuv umidida hovliqish xissi;*
- personajning uchrashuv tufayli qo'rquv, alam, umid xissi;*
- personajning boshqa personaj bilan uchrashish uchun kelishi;*
- personajning boshqa personaj bilan hayrlashish uchun ko'rishga kelishi;*
- shoshilinch uchrashuv;*
- hol-ahvol so'rash uchun uchrashish;*
- uchrashuvning hayvonlar obrazida jonlantirilishi;*
- uchrashuvdan uyalish xissi;*
- uchrashuvdan personajning hursandlik xissi;*

Personajlarning birinchi uchrashuvining ifodalanishi Past perfect zamonida tuslangan *see* fe'li vositasida ham berilgan:

*I looked in vain for her I **had first seen** the night before; she was not visible: Miss Miller occupied the foot of the table where I sat, and a strange, foreign-looking, elderly lady, the French teacher*(Ch.B. p.45).

Huddi shu turdagi representatsiyaning *meet* fe'li vositasida Past Simple zamonida tuslangan formasi orqali berilgan.

*“I have an answer for you—hear it. I have watched you ever **since we first met**: I have made you my study for ten months* (Ch.B. p.409).

Personajlarning, ya'ni Jeyn Eyr va Rochesterlarning taqdiri azal tufayli uchrashuvlari quyidagicha ifodalangan:

I could have deemed that in some wild, lone scene, I and Jane were meeting. In spirit, I believe we must have met (Ch.B. p.454)

Personajlarning oxirgi uchrashuvi asosan ulardan birining o'limi oldidan *see* fe'lining *must* modal fe'li bilan berilishi orqali g'oyalashtirilgan:

*I dreaded being discovered and sent back; for I **must see** Helen,— I must embrace her before she died,—I must give her one last kiss, exchange with her one last word.* (Ch.B. p.81)

*“And **shall I see you again**, Helen, when I die?”* (Ch.B. p.82)

Lekin boshqa kontekstlarda uzoqqa jo'nab ketish sababli oxirgi uchrashuv ehtimoli present simple zamonida:

*...for he has brought me to England, and now he is gone back again himself, and I **never see** him.* (Ch.B. p.104)

Rochesterning Jeynni ko'rganida zavqlanib, hursand bo'lishi *see* va *smile* leksemalari vositasida Jeyn tasviri:

*I saw Mr. Rochester **smile**: his stern features softened; his eye grew both brilliant and gentle, its ray both searching and sweet.* (Ch.B. p.177)

Jeyn bilan uchrashishdan zavqlanishini aytgan personaj Rochesterning gaplarida *enjoy a chance meeting with smb* leksemasi:

*I used to **enjoy a chance meeting with you**, Jane, at this time*(Ch.B. p.318)

Jeyn Eyning Maria Templni ko'rgan vaqtida uning tashqi ko'rinishidan, u bilan uchrashuvdan hayratlanishi *eyes traces her steps, seen now* kabi turg'un birikma va past participle formasidagi fe'l orqali berilgan:

*While the direction was being executed, the lady consulted moved slowly up the room. I suppose I have a considerable organ of veneration, for I retain yet the sense of admiring awe with which **my eyes traced her steps**. Seen now, in broad day-light, she looked tall, fair, and shapely; brown eyes with a benignant light in their irids, and a fine pencilling of long lashes round, relieved the whiteness of her large front*(Ch.B. p.47)

Adel bilan uchrashganda hayratlanish xissi:

***Having seen Adele comfortably seated** in her little chair by Mrs. Fairfax's parlour fireside, and given her best wax doll (which I usually kept enveloped in silver paper in a drawer) to play with, and a story-book for change of amusement*(Ch.B. p.112)

Asarda Jeyn Eyr Mr Loyd bilan uchrashuvdan ham qo'rquv ham hayajonni xis qilganligi

*In the course of the tale I had mentioned Mr. Lloyd as **having come to see me after the fit**: for I never forgot the, to me, frightful episode of the red-room: in detailing which, my excitement was sure, in some degree, to break bounds* (Ch.B. p.71)

Jeyn Eyning Rochesterning ko'rishga hayajonli istagi va bir vaqtning o'zida qo'rquv xissi birinchi misolda *wish to see* va *fear to see* fe'lli birikmalarining present simpledagi formalari oqali: *I both **wished and feared to see Mr. Rochester** on the day which followed this sleepless night: I wanted to hear his voice again, yet **feared to meet his eye**.* (Ch.B. p.154)

Aynan yuqoridagi holatning ko'rishish istagining *be pleasure in meeting* va ko'rishishdan qo'rqish xissining *broken by the fear* turg'un birikmalari orqali:

*I knew there would **be pleasure in meeting** my master again, even though **broken by the fear** that he was so soon to cease to be my master* (Ch.B. p.247)

Jeyn Eyrning Rochester bilan uchrashishni sabrsizlik va betoqatlik bilan kutishi va qoʻrquv xissi quyidagi koʻrinishda ifodalanganligi aniqlandi:

*“I have never heard Mr. Rochester’s voice or step in the house today; but surely I **shall see** him before night: I **feared the meeting** in the morning; now I desire it, because expectation has been so long baffled that it is grown impatient.”*
(Ch.B. p. 158)

Helen Bernsning salomatligidan xavotirga tushgan Jeyn Eyr Mr. Beyts bilan eshikdan chiqib, darrov qaytib uyga kirib eshikni yopgan xamshira bilan koʻrishib, Helen Bernsning ahvoli haqida soʻrashga oshiqadi:

*Mr. Bates came out, and with him was a nurse. After she **had seen** him mount his horse and depart, she was about to close the door, but I **ran up to** her.*
(Ch.B. p. 80)

Jeyn Eyr doʻstining oʻlim toʻshagida yotganligidan xabar topib, oxirgi marta uchrashuv boʻlishi mumkinligidan qoʻrquv, oldinroq kela olmaganligidan alamni xis qilib, lekin baribir koʻrishga ulgurishga umid qiladi:

*I experienced a shock of horror, then a strong thrill of grief, then a desire—a **necessity to see** her; and I asked in what room she lay.* (Ch.B. p. 80)

Madira yetti yil oldin taxminan Jeyn Eyrning otasiga yaqin aka boʻlgan kishilardan biri Jeynni izlab, koʻrishni istab kelganligini, u juda oliyjanob koʻringanini eslab gapirib beradi:

*Mr. Eyre came to Gateshead and **wanted to see** you; Missis said you were it school fifty miles off* (Ch.B. p. 93)

Betob boʻlib yotgan Helenni oldiga koʻrishga kelganida, Helenning Jeynga aytgan soʻzlari:

*“You **came to bid me good-bye**, then: you are just in time probably.”*(Ch.B. p. 80)

Ancha vaqtlardan beri Jeynni koʻrish istagida boʻlgan Bessi Jeynning ketayotganligini eshitib, darhol shoshilinch yoʻlga chiqib Jeyn bilan uchrashadi:

*“No, indeed: but I have long **wanted to see** you, and when I heard that there had been a letter from you, and that you were going to another part of the*

country, I thought I'd just set off, and get a look at you before you were quite out of my reach.”(Ch.B. p. 92)

Uchrashuv komponentining yadro leksemalaridan biri *came to see* fe'lli birikmasi orqali ko'p kishilar Jeynning ustozining oldiga hol-ahvol so'ragani kelganliklarini personaj quyidagicha eslaydi:

*“I lived long ago with mama; but she is gone to the Holy Virgin. Mama used to teach me to dance and sing, and to say verses. A great many gentlemen and ladies **came to see** mama, and I used to dance before them, or to sit on their knees and sing to them: I liked it. Shall I let you hear me sing now?”* (Ch.B. p. 103)

Mana bu misolda esa kuchukning obrazi ho'jayini bilan uchrashuvni kutib jonlantirilgan:

***The dog came bounding back, and seeing his master** in a predicament, and hearing the horse groan, barked till the evening hills echoed the sound, which was deep in proportion to his magnitude.* (Ch.B. p. 114)

Jeyn Eyrn do'kon sotuvchisining oldiga kirib, uning, oddiy do'kon xizmatchisining bashang kiyinganligini ko'rib, o'zining eski kiyimlaridan hijolat bo'lib, uyatli vaziyatga tushadi. Xatto nega do'kon sotuvchisining oldiga kirgani ham yodidan chiqib ketadi:

***Seeing** a respectably-dressed person, a lady as she supposed, she came forward with civility. How could she serve me? I was seized with shame* (Ch.B. p. 330)

Avliyo Jon ismli personaj o'z singillari bilan uchrashuvdan juda hursand bo'lib ketganligini tasvirlagan sentensiyada *glad to see* sifat + infinitiv birikmasidan foydalanilgan:

*My cousins, full of exhilaration, were so eloquent in narrative and comment, that their fluency covered St. John's taciturnity: he was sincerely **glad to see** his sisters* (Ch.B. p. 399)

Badiiy asarda *meet, see, saw, metkabi meeting* konseptining yadro leksemalari ishtirokidagi sentensiyalarning semantik, struktur, leksik xususiyatlari

yuqoridagicha tavsiflandi. Shuningdek, *meeting* konsept-so'zi ishtirokida ham quyidagi misollar aniqlandi.

Mazkur misolda Jeyn Eyning Rochester bilan tasodifiy, hayajonli uchrashuvi *a sudden meeting* birikmasi vositasida aks etgan:

*I stayed my step, almost my breath, and stood to watch him—to examine him, myself unseen, and alas! to him invisible. It was **a sudden meeting**, and one in which rapture was kept well in check by pain* (Ch.B. p. 437)

Desirous meeting birikmasi orqali ifodalangan sentensiyada esa *meeting* konsept-so'zi butun umr kutilgan uchrashuv sifatida dominant rolni egallab turganligini ko'rish mumkin:

*“A young lady accustomed to tuition” (had I not been a teacher two years?) “is desirous of **meeting** with a situation in a private family where the children are under fourteen* (Ch.B. p. 88)

Bu misolda esa *meeting* konsept so'zi *public* so'zi bilan birikib, umumiy, omma majlisi, omma yig'ini ma'nosini ifodalab kelgan va huddi shu misolda ham gapda ma'no urg'usi shu so'z birikmasiga berilgan:

*One day he had had company to dinner, and had sent for my portfolio; in order, doubtless, to exhibit its contents: the gentlemen went away early, **to attend a public meeting** at Millcote...* (Ch.B. p. 130)

Mazkur misolda ham sentensiyaning ma'no urg'usi *meeting* konseptiga tushadi, bu yerda sentensiyaning kontekstual, komponentlarning semantik ma'nosidan *meeting* so'zi yuzma-yuz shaxsiy masalalar haqida suxbat qurish uchun uchrashuv ekanligini anglash qiyin emas:

*...offered her a purse for immediate exigencies; disregarded screams, hysterics, prayers, protestations, convulsions; made an appointment with the vicomte for a **meeting at the Bois de Boulogne*** (Ch.B. p. 146)

Bu misolda ham ma'no urg'usi sentensiya komponentlari ichida ham mantiqan, ham mazmunan *meeting* so'ziga tushadi, *meeting* kontekstual va semantik xususiyatlarga ko'ra *sevgan kishisiga duch kelishi, ko'zning ko'zga tushishi* ma'nolarini ifodalaydi:

*I feared the **meeting** in the morning; now I desire it, because expectation has been so long baffled that it is grown impatient* (Ch.B. p. 158).

Meeting konsept so'zi vositasida avtorning xususiy ijodiy va stilistik usullaridan turli metaforik birikmalar ham kelib chiqqan, misol uchun Jeyn Eyning hayoliy monologidan quyidagi parcha ham bunga misol, ya'ni leksik-semantik, va ko'chma ma'no xususiyatlariga ko'ra :

*“Turn back: on so lovely a night it is a shame to sit in the house; and surely no one can wish to go to bed while **sunset is thusat meeting with moonrise.**”*(Ch.B. p. 251).

Meeting of minds tasviriy ifodasining semantik xususiyatidan foydalanib avtor o'z variantini yaratgan:

*Thought fitted thought; **opinion met opinion*** (Ch.B. p. 355).

No money meet my needs tasviriy ifodasidan avtor o'z stilistik sentensiyasini yaratgan:

No ruth met my ruth. (Ch.B. p. 417)

Tahlil natijalaridan meeting konseptining yadro leksemalarining badiiy asarlarda qo'llanilishi bo'yicha quyidagi xulosalarni qabul qilish mumkin:

-ingliz badiiy asarlarida *see, meet, meeting* kabi *meeting* konseptining leksik-semantik komponentlari asar mikro va makrovoqealarining mantiqiy uzluksizligini ta'minlaydi;

-ingliz badiiy asarlarida *meeting* konseptining semantik-leksik komponentlari turli struktur elementlar birikib kelib, konseptni verballashtiradi;

-*meeting* konsept so'zi qo'llanilgan sentensiyalarda meeting konsept so'zi ma'no urg'usini oladi va kontekstdan markaziy o'rinni egallaydi;

-*meeting* konsepti badiiy asarlarda romantiklik hamda estetiklikni ta'minlashda vosita rolini bajaradi.

Jeyn Eyr badiiy romanida meeting konseptining semantik-leksik, kontekstual va funksional reprezentatsiyasi bo'yicha xulosa quyidagicha:

-asarda meeting konsepti Jeyn Eyning Rochester bilan uchrashuvdan ham hayajon, ham qo'rquv, ham ishqiy istakni xis qilishini ifodalaydi;

-asarda meeting konseptining funksiyasi Jeyn Eyr bilan Rochesterning hurmat, romantika, sevgi to'la uchrashuvlari, Jeyn Eyrning Rochesterning sobiq telba xotini bilan ko'rishib qolishi haqidagi qo'rquvli o'ylar, ikkinchi va uchinchi darajali personajlarning uchrashuvlari, suxbatlarini implisit va eksplisit darajada aks ettirib, asarda mikro va makro voqealarning, sahnalarning va personajlarning vaqt, zamon me'yorlaridan o'zaro almashinish xodisalarini uzluksizligini ta'minlashdir.

2.2. Meeting konsepti, yadro leksemalariva uchrashuv nutq aktlarining ingliz badiiy adabiyotida aks etishi bo'yicha sxematik-statistik analizi

Uchrashuv konseptining *meet, see* leksik-semantik komponentlari va meeting konsept so'zi vositasida Charlotta Bronte qalamiga mansub Jeyn Eyr romanining badiiy adabiyot namunasi sifatida mohiyati shakllanganligi ma'lum bo'ldi. Konseptning mazkur romanda reprezentatsiyasi bo'yicha sxematik tasnifi quyidagicha:




Bu sxema komponentlarining romanda aks etishi bo'yicha tasnif quyidagicha:

1. *Frightful meeting* romandagi juda ko'p qismlarda Jeyn Eyrning Rochester bilan uchrashuvdan qo'rqib turishi;
2. *Desirious meeting* Jeyn Eyr Rochester bilan uchrashishni juda istashi;
3. *Public meeting* Rochesterning omma majlislariga qatnashib turishi;
4. *Face-to-face meeting* Avliyo Jon Jeynni Bois kafechasiga yuzma-yuz suxbatga taklif qilishi;
5. *Last meeting* Jeynning Helenning o'limi oldidan oxirgi uchrashuvi, Rochesterning uyidan ketishdan oldin oxirgi uchrashuv ehtimoli;
6. *Urgent meeting* Jeyn Helenning kasalligini eshitib uchrashuvga shoshilinch shaylangani;
7. *A sudden meeting* Jeynning Rochester bilan bir necha marta tasodifan uchrashib qolganliklari;
8. *First meeting* Jeyn va Rochesterning ilk uchrashuvi va uni ikki personajning xotirlash epizodlari;
9. *Destined meeting* Rochester Jeyn bilan uchrashuvini taqdirning tuxfasi deb xotirlab, hayoliy monologlarida eslaganliklari;
10. *Romantic meeting* Jeyn Eyrning quyosh botayotib oy bilan bir necha soniyaga bo'lsa ham uchrashishini ro'kach qilib, shu vaqtda Rochester bilan ishqiy uchrashuvni hayol qilishi;
11. *Planned meeting* Jeyn Eyrning bir necha personajlar bilan uchrashuvlarni rejalashtirishi;
12. *Pleasant meeting* Rochester uchun Jeyn bilan ko'rishish hamisha yoqimli ekanligi;
13. *Unexpected meeting* Jeynning Rochester, Bessi, Madira va hk. personajlar bilan kutilmagan uchrashuvlari;

Bu tasnifdan xulosa qilish mumkinki, uchrashuv konsepti romanda dominant rolni egallaydi. Negaki voqea-xodisalarning uzluksizligi, romandagi zamon, makon, personajlar va harakatlarning o'zgarib turishi meeting konseptining leksik-semantik komponentlari vositasida personajlarning muayyan zamon (vaqt),


makon (joy, masalan kafe, uy), ma'lum harakat vaqtida (sayr qilish, yurish) va hk.da uchrashib qolishlari orqali boshqariladi.



Ko'rinib turganidek, uchrashuv konseptining yadro leksemalari orqali realizatsiyasi bilan bog'liq 55 xil kontekst, ya'ni sentensiyalar aniqlangan bo'lib, ulardan 14 tasini kutilmagan, 11 tasini yoqimli, 7 tasini tasodifiy, 6 tasini rejalashtirilgan hamda romantik, 5 tasini havotirli, 4 tasi birinchi uchrashuv, 3 tasi yuzma yuz, oxirgi va taqdir qilingan, 2 tasi orzudagi va majlis uchrashuvlaridan iborat. Demak, ingliz adabiyotining klassik na'munalaridan biri bo'lgan Jeyn Eyr romanida perosonajlar o'rtasida kutilmagan uchrashuvlar dominant bo'lib hisoblanadi.

Endi esa tahlil natijalari bo'yicha meeting konseptining leksik-semantik komponentlarining *see, meet, meeting, go to see, visit* semalari orqali konseptning verballashuvi bo'yicha statistik ma'lumotlarni izohlash mumkin:

Meeting konseptining yadro leksemalar orqali konseptning Jeyn Eyr romanida verballashuvi



Ko'rinib turganidek, Jeyn Eyr romanida meeting konseptining yadro komponenti *see* fe'li romanda dominant bo'lib turibdi, u turli ko'rinishda, o'tgan, kelasi, hozirgi zamonda, modal fe'llar bilan birikib kelishi mumkin. *Meet* fe'li va *meeting* so'zi bir foizgina farq bilan ikkinchi o'rinda ustunlikni ushlab turibdi. Shuningdek, oltita sentensiya holatlarida *come to see*, *go to see* fe'lli birikmasi orqali, qolgan bitta sentensiyada esa *visit* fe'li orqali meeting konsepti romanda semantik reprezentatsiyaga uchragan.

Shuningdek, uchrashuv vaqtida ma'lumki o'ziga xos nutq axtarlari va etiketlari mavjud. Jeyn Eyr romani ham bundan mustasno emas. Jeyn Eyr romanida uchrashuv vaqti salomlashish bilan bog'liq parchalar quyidagicha izohlanishi mumkin.

Xushmuomalalik bilan, erkalash va hurmat bildirish, murojaatlar orqali salomlashuv:

"Now, my good fellow, how are you?" he asked. (CH.B. p.214)

"Yes, Aunt Reed. How are you, dear aunt?" (CH.B. p.233)

"Good morning, Miss Adela," said Mrs. Fairfax. "Come and speak to the lady who is to teach you, and to make you a clever woman some day." (CH.B. p.102)

She said “Good morning, Miss,” in her usual phleg-matic and brief manner;
(CH.B. p.155)

“Good evening, madam; (CH.B. p.132)

“Good evening, Mr. Rivers. And good evening, old Carlo. (CH.B. p.367)

Do’stona murojaat bilan salomlashuv holatlari:

“Good morning, Grace,” I said. (CH.B. p.155)

Good evening! (CH.B. p.370)


“How are you? and how is your charge today?” (CH.B. p.296)

“How are you now, Jane?” (CH.B. p.302)

I now drew near and knocked: John’s wife opened for me. “Mary,” I said, “how are you?” (CH.B. p.438)

“How are you tonight, Helen? Have you coughed much today?” (CH.B. p.72)

Shuningdek, Goodbye deb hayrlashish hollari ham 11 ta o’rinda uchradi.



Ko’rinib turganidek, Jeyn Eyr romanida salomlashuv va hayrlashish nutq etiket aktlari ichida *how are you?* Jami 6 ta o’rinda, *good morning* 3, *good evening* hamda *goodbye* ham 3, *hello, hi* esa bironta ham o’rinda ishlatilmagan.

2.3 Uchrashuv konseptining o'zbek badiiy adabiyotida leksik-semantik dominant va referentlari

O'zbek xalqining durdona badiiy asarlaridan biri bo'lmish bir begunoh, beg'ubor qizning taqdiri tasvirlangan Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va Kunduz" romani syujetining qaysidir jihatlari bilan "Jeyn Eyr" romaniga o'xshashligi tufayli tahlil manbai sifatida tanlab olindi.

Birinchi uchrashuv komponenti mana shu misolda o'tgan zamon sifatdoshi orqali semantik reprezentatsiya qilinadi:

Birinchi marta bu xilda uchrashgan yosh qiz shu paytda bir oz gangragan edi. Shuning uchun qo'lini darrov tortib olmasdan, o'ziga kelganidan keyin, birdaniga jerkib tortdi. (A.Ch. – b.25)

Shuningdek, quyidagi misol ham *uchrashuvot* so'z turkumiga mansub konsept so'z orqali:

Toza paranjisini iflos obrezga irg'itdi. Ertasi kuni tushga yaqin dasturxonni ko'tarib, mening mehmonxonamdan chiqib ketdi. — «**Poshshaxonning men bilan birinchi uchrashuvi shu xilda bo'ldi. Men bo'lgan gapni gapirdim**» (A.Ch. – b.157)

Tanishuv, birinchi tanishgan kun ma'nosi anglashiladigan birinchi *uchrashuv* konsepti ot so'z turkumiga oid, birinchi shaxs ko'plik formadagi egalik qo'shimchasi bilan turlangan konsept-so'z bilan ifodalanadi:

Taqsiqlar, men noyib to'raning xotini bilan ayshu ishrat qilmadim, o'lay agar! U, bizning ish ustidagi birinchi uchrashuvimiz, o'z tilimizda aytsak, birinchi «bay ochishimiz» edi!..»(A.Ch. – b.161)

Birinchi uchrashuv, sovchilar tomonidan yigit va qiz uchun tanishuv uchrashuvida qizni tutqanoq tutishi mumkinligi havotiri to'la uchrashuv shu usulda aks ettiriladi:

...itlik tuyg'ulari to'g'risiga kelganda, ularni astoydil niqtalashga bel bog'laganini eshittirilsa, balki qiz ham «yo'q» demasdi, birinchi uchrashuv tutqaloqsiz o'tib olsa, undan keyin oson bo'lardi.(A.Ch. – b.163)

Qo'rqinch to'la uchrashuv *talvasali* otdan yasalgan sifat, va ot so'z turkumiga mansub *uchrashuv* konsept-so'zining birikishi orqali ifoda qilingan: *Kampir esa ikki yoshning bu talvasali uchrashuviga quruq gavdasi bilan guvoh bo'lib, hali ham shirin uyquda dang qotib yotardi...* (A.Ch. – b.25)

Xavf xatarga to'la sevishganlar uchrashuvini tasvirlash uchun romanda *qaltis* sifati va *uchrashuv* konsept so'zi birikmasidan foydalanilgan:

Bu yoqda otiga serzarda qamchi bergan O'lmasjonning horg'in vujudi bu qaltis uchrashuvning guldirama olovida yonarkan, o'zidan begona bo'lib ketayotgan Zebining ko'zlarida yirik-yirik marvarid donalari yiltirardi... (A.Ch. – b.77)

Uyatli uchrashuv komponenti ham romanda o'z aksini topgan bo'lib, personajning ishratxonada jonona kiyimsiz uxlab yotgan joyiga uning xizmatidan foydalanish uchun kiradi, lekin u bilan shu kartda tanishishni hohlamaganini aytadi:

U o'z xonasining eshigini sekingina ochib kirganvaqtida yosh juvon kiyimlarini yechgan, kartda uxlab yotardi... Boshi yostiقدan tushgan, sochlari tarqalgan... Miryoqub yana sekingina qaytib chiqib, xo'jayinning yoniga kirdi. — Borib uyg'ot, do'stim. Turib, yuvinib, kiyimlarini kiysin. Men u bilan to'ppa-to'g'ri kartda uchrashmoqchi emasman... (A.Ch. – b.118)

Bir-biriga manfaat bilan befarq qarovchi kishilarning manfaatli munosabati tugaguncha uchrashuvi quyidagi sentensiyada o'z aksini topgan:

Bu kartga kelgan ham loqayd xayrlashajak, balki xayrlashib ham o'tirmasdan, burilib ketajak. Bir umr uchrashmaslik uchun ketajak!.. Chunki... Lodzli voyajer kabi...» Shundan so'ng, bir onda, o'tgan haftadagi uchrashuvni ko'z oldidan kechirib oldi. (A.Ch. – b.120)

Ikki kishining o'zaro manfaatli tanishuv uchrashuvning qay tarzda kechgani tasvirlanishi orqali ifodalanadi:

Toza paranjisini iflos obrezga irg'itdi. Ertasi kuni tushga yaqin dasturxonni ko'tarib, mening mehmonxonamdan chiqib ketdi. — «*Poshshaxonning men*

bilan birinchi uchrashuvi shu xilda bo'ldi. Men bo'lgan gapni gapirdim». (A.Ch. – b.157)

Unutilmas uchrashuv komponenti quyidagi sentensiyada verballashgan:

*Shu chun mingboshi bir yil kuz faslida Ostanaqul boyning katta bir qovun sayil qildirganini sira esidan chiqarolmaydi, **Miryoqub bilan o'sha sayilda uchrashib tanishgani uchun sayilni esdan chiqarishga** «vijdoni» yo'l qo'ymaydi...* (A.Ch. – b.52)

Ish ustida, ish bo'yicha uchrashuv romanda tergov vaqtida Miryoqub tomonidan izohlanadi:

*Taqsiqlar, men noyib to'raning xotini bilan ayshu ishrat qilmadim, o'lay agar! U, bizning ish ustidagi **birinchi uchrashuvimiz**, o'z tilimizda aytsak, birinchi «bay ochishimiz» edi!..»*(A.Ch. – b.161)

Majlis komponenti eshonlar majlisi ma'nosini anglatadigan suxbatlar referenti orqali ko'rsatilgan:

— *Badavlat bir odam. Katta osh tortibdi, lekin! Hast eshonimizni chaqirgan ekan, hammamiz birga bordik... **Qiyomat suhbatlar**bo'ldi!* (A.Ch. – b.68)


Personaj xotirasidagi uchrashuv esa sud majlisi referentida o'z aksini topadi:

***Miyada sud majlisi**, noyib to'ra xotini, nomerda kutib yotgan moviy ko'zli dilbar...* (A.Ch. – b.161)

Uzoq kutilgan uchrashuv-hukumat yig'ilishi ma'nosi anglashiladigan kengash majlisi referenti:

*O'z qo'l ostidagi hamma amin va ellikboshilarni o'z mahkamasiga chaqirib, bir kun ertadan kechgacha behuda intizor qilgandan keyin, nihoyat, ayvonda choy ichib o'tirib, «**kengash majlisi**»ni ochdi.* (A.Ch. – b.201)

Kechava kunduz romanidagi *uchrashuv* konseptining reprezentantlari sifatida berilgan leksik-semantik birliklarning referentlik va dominantlik xususiyatlari asosida yuzaga kelgan konsept komponentlarining sxematik ko'rinishi quyidagicha aniqlandi:



1. *Talvasali uchrashuv* – Zebining aravadan tushish vaqtida uni yordam qilish uchun qo’lidan ushlab, ko’zlariga tikilgan yosh aravakash yigit bilan shu holatda uzoq turib qolgan holati;

2. *Hukumat uchrashuv majlisi* – Mingboshining Miryoqub yordamida kichik omma bilan uchrashuv tashkil qilishi;

3. *Uzoq kutilgan uchrashuv* – tegishli boshqaruv dasturlarini olib kelgan mingboshining qo’l ostidagilarni uchrashuvga chaqirib uzoq kuttirgani;

4. *Ishratxonadagi uchrashuv* – Miryoqubning ishratxonada jonona bilan uchrashuvi;

5. *Unutilmas uchrashuv* – Mingboshining sayilda Miryoqub bilan birinchi tanishgani;

6. *Qaltis uchrashuv* – Zebiga safarda sherik qilingan zaxarxanda kampir personajining Zebi bilan aravakash O’lmasjon bilan ko’rishib turganlarini sezish xavfi bor uchrashuv anglashilgan;


7. Miryoqubning Poshshaxonim bilan ishrat qilish uchun uchrashganlik aybini qo’yishganda *uyatli uchrashuvidan* hijolat bo’lgani;

8. *Xotiradagi uchrashuv* –Miryoqubning xotirasidagi sud majlis-uchrashuvi, noyibto'raning xotini bilan va mehmonxonadagi nomerlardan birida uni kutib turgan moviy ko'zli jonona bilan ko'rishgani;

9. *Havotirli uchrashuv* - Zebining aravakash bilan uchrashuvidan, Miryoqubning esa sudda noyibning o'zi, mehmonxonadagi jonona bilan uchrashgandagi havotiri;

10. Miryoqubning Poshshaxonim va mehmonxonadagi jonona bilan *manfaatga asoslangan uchrashuvi*;

11. Noibning Miryoqub bilan, Miryoqubning Poshshaxonim, jonona, mingboshi, aminlar bilan va *hk.birinchi uchrashuvlar*;



Kecha va kunduz romanida o'zbek tilidagi uchrashuv konsepti turli semantik va leksik referentlar orqali ifodalanib, birinchi uchrashuv va havotirli uchrashuv besh o'rinda, hukumat va majlis uchrashuvi 12 ta o'rinda, uzoq kutilgan, unutilmas va uyatli uchrashuvlar eng kam 1 o'rinda, xotiradagi, qaltis va ishratxonadagi uchrashuv 2 o'rinda, o'zaro manfaatli uchrashuv 3 o'rinda uchrashi aniqlandi.

O'zbek badiiy adabiyotida *ko'rishmoq*, *ko'rgani bormoq*, *uchrashmoq*, *tashrif buyurmoq*, *uchrashuvga bormoq* kabi referentlar bilan uchrashuv konseptining aks ettirilishi juda kam hollarda uchraydiki, uning ahamiyati juda kam desa ham xato b'lmaydi. Ingliz badiiy adabiyotida esa aksincha, bu kabi referentlarning ahamiyati katta. O'zbek badiiy adabiyotida ko'proq pragmatik ta'sir ko'rsatish, germeneytik izoh, bevosita kontekstual ma'no orqali uchrashuvni aks ettirish adabiy urf hisoblanadi. Misol uchun:

O'rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini irg'itdi va o'zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi. (A.Ch. –b.4)

Bu yerda o'rangan qiz personajining Zebi bilan ko'rishgani haqidagi sentensiya implisitligicha qolgan bo'lib, kontekstual sentensiya orqali uchrashuvning ifodalanganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, navbatdagi misolda ham so'fi personajining bostirib kirib kelib, ikki qiz bilan duch kelishi, ya'ni tasodifiy uchrashuvi kontekstual implisit sentensiya orqali berilgan:


Razzoq so'fi xuddi shu ola-to'polon ustiga kirib keldi! Eshikdan kirar-kirmas ovozi boricha:

— *Bu nima qiyomat!!! — deb shovqin solishi ikkala yosh qizni, chaqmoq tekkan daraxtday, turgan joylarida qotirib qo'ydi.* (A.Ch. –b.7)

Quyidagi misolda ham Sultonxon personajining onasi bilan uchrashish maqsadida ketganligi eksplisit bayon qilinmasa hamki, implisit kontekstual sentensiyadan buni anglab olish mumkin:

Sultonxon, to'yga bir necha kun qolganda, onasinikiga ketgan edi. (A.Ch. – b.106)

Uchrashuv konseptining nutq etiket aktlari salomlashish, xayrlashishga keladigan bo'lsak, salomlashish bo'yicha "Xayrli tong. Xayrli kun" kabi salomlashuvlar turi aniqlanmadi. O'zbek adabiyoti na'munalarida ingliz adabiyotidan farqli ravishda, *salom berdi, salom-alikdan so'ng, salom berar-bermas, Assalomu alaykum deb, tuzukmisiz?* kabi salomlashish akti ifoda qilinsa, bu hol xayrlashish bo'yicha *Xayr, mayli, xayr deb, xayrlashib, xayr-xo'sh aytibkabilarni taqozo qiladi.*



Xayr so'zining dialogik nutqda qo'llanilishi eng ko'p uchraydigan holat bo'lib, u 19 tani, *salomlashish va xayrlashishni kontekstual ifodalash* esa, misol uchun "qo'lini siltab ketdi, qo'l siqib qo'ydi" 34 tani, "xayrlashmoq, ketishga ruxsat/ijozat so'ramoq /bermoq" hollari 10 tani, "xayrlashmoq" fe'li ham huddi shuncha miqdorni, "salom qilmoq" holati 1 tani, "assalomu alaykum" deyish holati 2 tani tashkil qiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ingliz adabiyotidan farqli ravishda o'zbek adabiyotida uchrashuv konsepti, *see, meet, come across, have a talk* ga o'xshash, *ko'rishmoq, bir-birini ko'rishga bormoq, suxbatlashmoq* kabi yadro leksema va semantik komponentlar vositasida verballashmaydi. O'zbek

adabiyotida *uchrashuv* konseptining verballashuvi asardagi voqea hodisalarning uzluksizligini ham ta'minlamaydi. *Uchrashuv* konseptining verballashuvi o'zbek adabiyotida implisit ravishda kontekstual ifodalanishi mumkin.

Ma'no urg'usi ham juda kamdan kam hollarda uchrashuvga tushishi mumkin.

O'zbek adabiyotida *ko'rishdi, bir-birini ko'rdi, duch keldi* kabi uchrashuv konseptining leksik-semantik komponentlarining qo'llanilish holatlari juda kamdan kam hollarda uchraydi. Tanlangan tahlil manbaida esa umuman bu holatga duch kelinmadi. Ya'ni Kecha va Kunduz romandi uchrashuv konsepti fe'l so'z turkumiga oid *uchrashmoq*, ot so'z turkumiga mansub *uchrashuv* so'zi vositasida verballashgan. Shuningdek, *So'fi aminnikiga aytmadan keldi, bostirib bordi, ... nikiga yo'l oldi* tarzda uchrashuvga borishni anglatuvchi kontekstual aktual ifodalarning qo'llanilishi adabiy urf hisoblanadi.

O'zbek adabiyotidan ingliz adabiyotidan farqli ravishda uchrashuv konseptining komponentlaridan oxirgi, romantik, taqdir qilingan, tasodifiy uchrashuv komponentlari aniqlanmadi, ingliz adabiyotida aniqlanmagan o'zbek adabiyotidagi komponentlar esa *o'zaro manfaatli, qaltis, ishratxonadagi, xotiradagi, unutilmas uchrashuv* komponentlari aniqlandi.

Ingliz adabiyotida, shu jumladan Jeyn Eyr romanida uchrashuv konseptining maxsus nutq etiket aktlari, *good morning, good afternoon, how are you?, goodbye* lar juda ko'p miqdorda aniqlangan bo'lib, o'zbek adabiyotida, xususan Kecha va Kunduz romanida ular juda kamchilikni tashkil qildi. Bu kabi aktlarning o'rniga etiket harakatlarining aktual va kontekstual ifodasi dominant ahamiyatga ega: *salom qildi, salomiga alik oldi, salom alik qildi, xayrlashdi, xayr-xo'sh qilib ketdi, ketishga ruxsat / ijozat so'radi, bizga endi ruxsat dedi.*

Assalomu Alaykum deyish kam hollarda uchrashga qaramasdan, asarning romantik va estetik xususiyatlarini personajlarning xayrlashish aktida kuchaytirish uchun ham Xayr so'zi juda ko'p qismlarda uchrashini ko'rish mumkin.

II BOB BO'YICHA XULOSA

Ingliz adabiyotida “uchrashuv” konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasini *meeting* konseptining yadro leksemalarining Sharlota Bronte qalamiga mansub “Jeyn Eyr” romanida o’rganib tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni qabul qilish mumkin:

Birinchi, ingliz badiiy asarlarida *see*, *meet*, *meeting* kabi *meeting* konseptining leksik-semantik komponentlari asar mikro va makrovoqealarining mantiqiy uzluksizligini ta’minlashi, ikkinchi, *meeting* konseptining semantik-leksik komponentlari turli struktur elementlar bilan birikib kelib, konseptni verballashtirishi, *meeting* konsept so’zi qo’llanilgan sentensiyalarda *meeting* konsept so’zi ma’no urg’usini olishi, va kontekstdan markaziy o’rinni egallashi, uchinchi, *meeting* konsepti badiiy asarlarda romantik, estetiklikni ta’minlashda vosita rolini bajarishi *meeting* konseptining asosiy leksik-semantik, stilistik funksiyalari sifatida aniqlandi.

“Jeyn Eyr” romanida *meeting* konseptining semantik-leksik, kontekstual va funksional reprezentatsiyasi bo’yicha xulosa quyidagicha:

Birinchi, asarda *meeting* konsepti Jeyn Eyrning Rochester bilan uchrashuvdan ham hayajon, ham qo’rquv, ham ishqiy istakni xis qilishini ifodalashi, ikkinchi, asarda *meeting* konseptining funksiyasi Jeyn Eyr bilan Rochesterning hurmat, romantika, sevgi to’la uchrashuvlari, Jeyn Eyrning Rochesterning sobiq telba xotini bilan ko’rishib qolishi haqidagi qo’rquvli o’ylar, ikkinchi va uchinchi darajali personajlarning uchrashuvlari, suxbatlarini implisit va eksplisit darajada aks ettirib, asarda mikro va makro voqealarning, sahnalarning va personajlarning vaqt, zamon me’yorlaridan o’zaro almashinish xodisalarini uzluksizligini ta’minlashdir. Uchrashuv konseptining Jeyn Eyr romanida semantik reprezentatsiyasi bo’yicha sxema komponentlarining romanda aks etishi bo’yicha tasnif quyidagicha:

Frightful meeting orqali romandagi juda ko’p qismlarda Jeyn Eyrning Rochester bilan uchrashuvdan qo’rqib turishi, *desirious meeting* orqali Jeyn Eyr Rochester bilan uchrashishni juda istashi, *public meeting* orqali Rochesterning

omma majlislariga qatnashib turishi, *face-to-face meeting* orqali Avliyo Jon Jeynni Bois kafechasiga yuzma-yuz suxbatga taklif qilishi, *last meeting* orqali Jeynning Helenning o'limi oldidan oxirgi uchrashuvi, Rochesterning uyidan ketishdan oldin oxirgi uchrashuv ehtimoli, *urgent meeting* orqali Jeyn Helenning kasalligini eshitib uchrashuvga shoshilinch shaylangani, *a sudden meeting* orqali Jeynning Rochester bilan bir necha marta tasodifan uchrashib qolganliklari, *first meeting* orqali Jeyn va Rochesterning ilk uchrashuvi va uni ikki personajning xotirlash epizodlari, *destined meeting* orqali Rochester Jeyn bilan uchrashuvini taqdirning tuxfasi deb xotirlab, hayoliy monologlarida eslaganliklari, *romantic meeting* orqali Jeyn Eyrning quyosh botayotib oy bilan bir necha soniyaga bo'lsa ham uchrashishini ro'kach qilib, shu vaqtda Rochester bilan ishqiy uchrashuvni hayol qilishi, *planned meeting* orqali Jeyn Eyrning bir necha personajlar bilan uchrashuvlarni rejalashtirishi, *pleasant meeting* orqali Rochester uchun Jeyn bilan ko'rishish hamisha yoqimli ekanligi, *unexpected meeting* orqali Jeynning Rochester, Bessi, Madira va hk. personajlar bilan kutilmagan uchrashuvlari aniqlandi.

Bu tasnifdan xulosa qilish mumkinki, uchrashuv konsepti romanda dominant rolni egallaydi. Negaki voqea-xodisalarning uzluksizligi, romandagi zamon, makon, personajlar va harakatlarning o'zgarib turishi meeting konseptining leksik-semantik komponentlari vositasida personajlarning muayyan zamon (vaqt), makon (joy, masalan kafe, uy), ma'lum harakat vaqtida (sayr qilish, yurish) va hk.da uchrashib qolishlari orqali boshqariladi.

Statistik hisoblash natijalariga ko'ra, uchrashuv konseptining yadro leksemalari orqali realizatsiyasi bilan bog'liq 55 xil kontekst, ya'ni sentensiyalar aniqlangan bo'lib, ulardan 14 tasini kutilmagan, 11 tasini yoqimli, 7 tasini tasodifiy, 6 tasini rejalashtirilgan hamda romantik, 5 tasini havotirli, 4 tasi birinchi uchrashuv, 3 tasi yuzma yuz, oxirgi va taqdir qilingan, 2 tasi orzudagi va majlis uchrashuvlaridan iborat. Demak, ingliz adabiyotining klassik na'munalaridan biri bo'lgan Jeyn Eyr romanida perosonajlar o'rtasida kutilmagan uchrashuvlar dominant bo'lib hisoblanadi.

Boshqa statistik hisob kitoblarga ko'ra, Jeyn Eyr romanida *meeting* konseptining yadro komponenti *see* fe'li romanda dominant bo'lib turibdi, u turli ko'rinishda, o'tgan, kelasi, hozirgi zamonda, modal fe'llar bilan birikib kelishi mumkin. *Meet* fe'li va *meeting* so'zi bir foizgina farq bilan ikkinchi o'rinda ustunlikni ushlab turibdi. Shuningdek, oltita sentensiya holatlarida *come to see*, *go to see* fe'lli birikmasi orqali, qolgan bitta sentensiyada esa *visit* fe'li orqali *meeting* konsepti romanda semantik reprezentatsiyaga uchragan.

Shuningdek, Jeyn Eyr romanida salomlashuv va hayrlashish nutq etiket aklari ichida *how are you?* Jami 6 ta o'rinda, *good morning* 3, *good evening* hamda *goodbye* ham 3, *hello, hi* esa bironta ham o'rinda ishlatilmagan.

Kecha va kunduz romanidagi *uchrashuv* konseptining reprezentantlari sifatida berilgan leksik-semantik birliklarning referentlik va dominantlik xususiyatlari asosida yuzaga kelgan konsept komponentlarining sxematik ko'rinishi quyidagicha aniqlandi:

Talvasali uchrashuv – Zebining aravadan tushish vaqtida uni yordam qilish uchun qo'lidan ushlab, ko'zlariga tikilgan yosh aravakash yigit bilan shu holatda uzoq turib qolgan holatini, *Hukumat uchrashuv majlisi* – Mingboshining Matholiq yordamida kichik omma bilan uchrashuv tashkil qilishini, *Uzoq kutilgan uchrashuv* – tegishli boshqaruv dasturlarini olib kelgan mingboshining qo'l ostidagilarni uchrashuvga chaqirib uzoq kuttirganini, *Ishratxonadagi uchrashuv* – Miryoqubning ishratxonada jonona bilan uchrashuvini, *Unutilmas uchrashuv* – Mingboshining sayilda Miryoqub bilan birinchi tanishganini, *Qaltis uchrashuv* – Zebiga safarda sherik qilingan zaxarxanda kampir personajining Zebi bilan aravakash O'lmasjon bilan ko'rishib turganlarini sezish xavfi bor uchrashuv anglashilganligini, Miryoqubning Poshshaxonim bilan ishrat qilish uchun uchrashganlik aybini qo'yishganda uyatli uchrashuvidan hijolat bo'lganini, *Xotiradagi uchrashuv* – Miryoqubning xotirasidagi sud majlis-uchrashuvi, noyibto'raning xotini bilan va mehmonxonadagi nomerlardan birida uni kutib turgan moviy ko'zli jonona bilan ko'rishganini, *Havotirli uchrashuv* - Zebining aravakash bilan uchrashuvidan, Miryoqubning esa sudda noyibning o'zi,

mehmonxonadagi jonona bilan uchrashgandagi havotirini, *Manfaatli uchrashuv* - Miryoqubning Poshshaxonim va mehmonxonadagi jonona bilan manfaatga asoslangan uchrashuvini, *birinchi uchrashuv* - Noibning Miryoqub bilan, Miryoqubning Poshshaxonim, jonona, mingboshi, aminlar bilan va hk.birinchi uchrashuvlarini ifodalagan.

Xayr so'zining dialogik nutqda qo'llanilishi eng ko'p uchraydigan holat bo'lib, u 19 tani, *salomlashish va xayrlashishni* kontekstual ifodalash esa, misol uchun "*qo'lini siltab ketdi, qo'l siqib qo'ydi* va hk." 34 tani *assalomu alaykum* deyish holati 2 tani tashkil qiladi.

O'zbek adabiyotida uchrashuv konsepti semantik jihatdan *ko'rishmoq, bir-birini ko'rishga bormoq, suxbatlashmoq* kabi yadro leksema va semantik komponentlar vositasida verballashmaydi, balki implisit ravishda kontekstual ifodalanishi mumkin.

O'zbek adabiyotida *ko'rishdi, bir-birini ko'rdi, duch keldi* kabi uchrashuv konseptining leksik-semantik komponentlarining qo'llanilish holatlari juda kamdan kam hollarda uchraydi. Tanlangan tahlil manbaida esa umuman bu holatga duch kelinmadi. Ya'ni Kecha va Kunduz romani uchrashuv konsepti fe'l so'z turkumiga oid *uchrashmoq*, ot so'z turkumiga mansub *uchrashuv* konsept so'zi vositasida verballashgan. Shuningdek, *So'fi aminnikiga aytmasdan keldi, bostirib bordi, ... nikiga yo'l olditarzda* uchrashuvga borishni anglatuvchi kontekstual va aktual ifodalarning qo'llanilishi adabiy urf hisoblanadi.

O'zbek adabiyotidan ingliz adabiyotidan farqli ravishda uchrashuv konseptining komponentlaridan oxirgi, romantik, taqdir qilingan, tasodifiy uchrashuv komponentlari aniqlanmadi, ingliz adabiyotida aniqlanmagan o'zbek adabiyotidagi komponentlar esa *o'zaro manfaatli, qaltis, ishratxonadagi, xotiradagi, unutilmas uchrashuv* komponentlari aniqlandi.

Salom va xayrlashuv aktlarning o'rniga etiket harakatlarining aktual va kontekstual ifodasi dominant ahamiyatga ega: *salom qildi, salomiga alik oldi, salom alik qildi, xayrlashdi, xayr-xo'sh qilib ketdi, ketishga ruxsat / ijozat so'radi, bizga endi ruxsat dedi.*

III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK PUBLITSISTIK MATNLARIDA
“UCHRASHUV” KONSEPTINING SEMANTIK REPRESENTATSIYASI
3.1. Ingliz publitsistik matnlarida “meeting” konseptining “meet va meeting”
yadro leksemalari vositasida semantik reprezentatsiyasi

Ingliz publitsistik matnlarida “meeting” konsepti leksik jihatdan, qaysi soʻz turkumiga mansubligiga koʻra oʻz leksik-semantik komponentlarining turli omillar boʻyicha qoʻllanilishiga qarab oʻrganib chiqildi. Tahlil qilishdan oldin the Guardian gazetasida quyidagi struktur omillar boʻyicha publitsistik matn materiallari ustida izlanishlar olib borildi:

-to meet fe'li;

-meeting (ot soʻz turkumiga mansub);

-met (oʻtgan zamonda tushlangan);

-meet, meets (oddiy hozirgi zamonda tushlangan);

-buyruq shaklidagi formasi (imperative form)

“To meet” feʼl soʻz turkumiga oid leksik komponent haqida soʻz borar ekan, to meet feʼli vositasida “meeting” konseptining semantik reprezentatsiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

-vaqti oldindan belgilangan sport uchrashuvining sodir boʻlishi kerakligi;

-oldindan belgilangan muhokamaning tashkil qilinishi kerakligi;

-gazetada muayyan sahifa qahramoni bilan intervyu-uchrashuvi uchun sarlavha sifatida mushtariylar bilan “koʻrishib turganidan hursand ekanligini koʻrsatish”;

-masala, muammoning yechimi ustida qaror qabul qilinishi uchrashuvining tashkil qilinish kerakligi;

-uchrashish istagi, hohishni ifoda qilish;

Roy Hodgson to meet with England squad at end of January

December 29, 2014 y, the Guardian;

Mazkur misolda sport bellashuvi uchun oldindan rejalashtirilgan, vaqti belgilangan bellashuvda Roy Hogdsonning Angliya jamoasi bilan uchrashuvi

nazarda tutilgan. Bu yerda *to meet* fe'lining asosiy funksiyasi zaruriy uchrashuvning vaqti yaqinlashayotganligining funksiyasi amalga oshirilgan.

FA to meet with England supporters to try and stamp out abusive chanting

October 31, 2014 y, the Guardian;

Yuqoridagi misolda muhokama maqsadida uchrashish zaruriyati qisqacha bayon qilingan bo'lib, shu leksik-semantik komponentning o'zi bilan ham bevosita kontekstual ma'no orqali muhokama masalasi ham nazarda tutilgan.

Good to meet you... David Hajducki

A reader who works with people recovering from brain injuries likes the Guardian's approach to mental health issues

October 31, 2014 y, the Guardian;

Bu misolda esa ko'rinib turganidek, the Guardianning "mushtariylar bilan tanishuv" sahifasida muayyan qahramon bilan tanishtirish uchun sarlavha sifatida "Uchrashuvdan hursandmiz" ma'nosidagi shior tanlangan.

Biden to meet with Erdogan as divide between US and Turkey widens

November 21, 2014 y, the Guardian;

Amerika va Turkiya o'rtasidagi muammoli vaziyatlar uchun Bidenning Erdogan bilan uchrashishi zarurligi anglashilgan sentensiyada *to meet* fe'lining asosiy semantik funksiyasi uchrashuvning shoshilinch tashkil qilinishi kerakligi ma'nosini ifoda qilishdir.

David Cameron to meet Iran leader over Isis campaign

September 23, 2014 y, the Guardian;

Gazetadan olingan bu parchada esa *to meet* fe'lining qo'llanilishida bajarilgan semantik funksiya David Kameronning Ayzis kampaniyasi masalasi bo'yicha Eron rahbari bilan uchrashuvga hohish bildirganligini aks ettirishdir.

Demak tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, *to meet* fe'lining turli o'rinlarda Guardian gazetasida qo'llanilishi orqali turli semantik funksiyalar bevosita amalga oshirilgan:

Birinchi, zaruriy (misolda sport uchrashuvi) uchrashuvning vaqti yaqinlashib borayotganligi;


Ikkinchidan, uchrashuvning (misolda muhokama uchrashuvi) tashkil qilinishi muhimligi;

Uchinchidan, mushtariylarga tanishtirilgan qahramonning tanishuvdagi shior-jumlasining ifodalanishi (misolda, good to meet you, readers!);

To'rtinchidan, uchrashuvning shoshilinch ravishda tashkil qilinishi kerakligi;

Beshinchidan, uchrashuvga hohish, istak bildirilayotganligi;

Sxematik tarzda ingliz tilida ifodalash uchun semantik ma'nolarini jamlab quyidagi natijaga erishildi:



Navbatdagi o'rganilishi kerak bo'lgan komponent "meeting" konseptining gazetalarda o'rganilishi natijasida quyidagilar aniqlanganligidir:

- gazetalarda turli uchrashuvlar turini aks ettirishi;
- metaforik birikmalar hosil bo'lishida qatnashishi;
- kishilarning to'planib muammoning yechimi ustida muhokama olib borishini ifodalashda qatnashishi mumkin.

Mazkur misolda bevosita anglashilgan semantik ma'no *birinchi marta tashkil qilingan yuzma-yuz uchrashuv* bo'lib, yashirin ko'chma ma'no esa,

shuncha qilmishlardan so'ng, yurak yutib endigina yuzma-yuz uchrashuv-majlisiga haddi sig'ish degan ma'no anglashiladi.

*This week, Putin held his **first face-to-face meetings** with western leaders since pro-European protesters pushed out Ukraine's Russia-friendly president in February*

June 6, 2014 y, the Guardian;

Quyidagi misolda anglashilgan semantik ma'no *favqulodda uchrashuv* bo'lib, Eronning tobora tushib borayotgan neft narxlari sababli ham favqulodda Opec uchrashuv-majlisini tashkil qilinishi kerakligi nazarda tutilgan.

Iran urged to hold an emergency Opec meeting due to falling oil prices

September 2, 2014 y, the Guardian;

Ushbu misolda *iqlim uchrashuv-majlisini* bekor qilishi mumkinligi haqidagi xabar qisqacha ifoda qilingan:

Chinese president Xi Jinping 'to skip Ban Ki-moon climate meeting'

June 2, 2014 y, the Guardian;

Bu yerdagi so'z birikmasidan yangicha *sayr-uchrashuvi* anglashilib, parcha gazetadagi maqoladan emas, reklama sahifasidan olingan.

Walking meetings: taking it to the streets

Bored with the boardroom? Put on your walking shoes! It will make your meetings more fun and healthier too

December 18, 2014 y, the Guardian;

Bu misolda esa kabinet uchrashuvi, ya'ni shaxsiy ish idorasida bo'ladigan uchrashuv, Qirolichaning uchrashuvi anglashiladi:

Queen attends cabinet meeting in Downing Street

November 10, 2014 y, the Guardian;

Ushbu parchada esa *shiddatli –icebreaking uchrashuvlar*, shuningdek, ikkinchi o'rinda *Apec uchrashuv-majlislari* nazarda tutilgan.

Japan's Abe and China's Xi hold ice-breaking meeting as Apec starts. Barack Obama flies into Beijing for Apec meeting.

December 8, 2014 y, the Guardian;

Quyidagi misolda parlament qo'mita majlis-uchrashuvi anglashilgan bo'lib, bu component va boshqa birliklar orqali Parlament va partiya a'zolarining pensiya islohotlari bo'yicha uchrashuv-majlisi vaqti o'z aypedlarida onlayn o'yinlarni o'ynab o'tirganliklarini tan olishi haqida xabar berilgan:

MP played Candy Crush in parliamentary committee meeting Conservative Nigel Mills admits playing popular online game on his iPad during meeting on pension reforms

December 5, 2014 y, the Guardian;

Maqoladan parchada qo'llanilgan uchrashuv turi, favqulodda kollektiv majlisi bo'lib, bu yerda "meeting" so'zining bittagina semantik vazifasini majlisni, bu so'z orqali esa butun sentensiyada notinchlikni to'xtatish uchun yangi rahbarning favqulodda kollektiv majlisini chaqirganligini ifoda qilish:

New Republic boss calls emergency staff meeting to quell unrest

October 8, 2014 y, the Guardian;

Mazkur misolda *civil service meeting* orqali fuqarolik xizmati malis-uchrashuvi anglashilgan bo'lib, sentensiyaning umumiy mazmuni Maykl Gouning nima uchun fuqarolik xizmati majlis-uchrashuviga taklif qilinganligi haqida savolni berishdan iborat:

Why is Michael Gove inviting himself to civil service meetings?

October 8, 2014 y, the Guardian;

Quyidagi misolda ham *public meeting* orqali ommaviy uchrashuv-yig'in ifoda qilingan bo'lib, sentensiyaning umumiy ma'nosi ommaning qaxr-g'azabiga sabab bo'lgan Maykl Braun o'limidan keying birinchi Fergusson omma yig'ilishining tashkil qilinishidan iborat.

First Ferguson public meeting since Michael Brown's death greeted by anger

September 10, 2014 y, the Guardian;

Trilateral meeting soʻz birikmasi bilan bu yerda uch taraflama uchrashuv, yaʼni umuman olganda, Yaponiyaning uch taraflama uchrashuvdan soʻng iqlimni oʻzgartirish fondiga 1,5 AQSH dollari tikkanligi nazarda tutilgan. Uchrashuv soʻzining sentension-semantik oʻrni bu yerda dominant:

Japan pledges \$1.5bn to climate change fund after trilateral meeting

November 16, 2014 y, the Guardian;

Skeptiklar va dindorlar oʻrtasidagi inson zoti oʻzi sababchi boʻlayotgan global isish jarayoni haqidagi *shiddatli-baxs munozara uchrashuvi* anglashilgan:

Manmade global warming: a stormy meeting between sceptics and believers

December 13, 2014 y, the Guardian;

Uchrashuv turi, birinchi rasmiy uchrashuv boʻlib, umumiy maʼno jahon liderlarining Ji20 Brizbondan keyingi birinchi rasmiy uchrashuvi haqidagi maqolaning sarlavhasining nomlanishi hisoblanadi:

G20 Brisbane: world leaders arrive for first official meeting – as it happened

November 15, 2014 y, the Guardian;

Inter-faith meeting soʻzining asosiy semantik maʼnosi mazkur kontekstda *dinlar aro uchrashuv-majlisi* boʻlib, yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal qilish uchun uchrashuv tashkil qilinishi bayon qilinadi:

Dalai Lama calls inter-faith meeting in India amid rising tension.

Buddhist spiritual leader to convene unprecedented talks in attempt to boost religious harmony in emerging economic power

September 15, 2014 y, the Guardian;

Mazkur misoldagi konsept-soʻzning maʼnosi yuqori saviyali uchrashuv boʻlib, umumiy kontekstual maʼno Shimoliy va Janubiy Koreyaning yuqori saviyadagi uchrashuv tashkil qilishidan iborat:

North and South Korea hold high-level meeting at borderPanmunjom talks breaks drought of senior dialogue, with family reunions, military exercises and tourism on the agenda

February 12, 2014 y, the Guardian;

Ko'p bashorat qilinib, qiziqish bildirilgan uchrashuv ma'nosini anglatib, bu misolning umumiy ma'nosi Obama va Eron Prezidenti o'rtasidagi Birlashgan Millatlar umumiy assambleyasining moliyalashtirish borasidagi masalalar bo'yicha majlisidan iborat:

Much anticipated meeting between Obama and Iranian president on the fringes of UN general assembly fails to materialize

September 24, 2014 y, the Guardian;

Board meetingning ma'nosimasalalar va ahvolni tartibga solishni bildiradi:
Jenson Button's fate to be decided at McLaren board meeting in December
November 24, 2014 y, the Guardian;

Confident city meeting so'zidan anglashilgan ma'no ishonchli shahar majlisidir:


Sainsbury slips despite confident City meeting

Supermarket says rival Tesco unlikely to go nuclear on price and plays down cash call talk

December 4, 2014 y, the Guardian;

Demak, tahlil natijasida shuni aniq aytish mumkinki, meeting konsept-so'zining gazeta materiallarida semantik ma'nolarni anglatishi quyidagicha aniqlandi. Davlat-siyosiy masalalar bo'yicha uchrashuvlarning sxematiktasnifining representatsiyasi bo'yicha:

Ijtimoiy ommaviy masalalar bo'yicha uchrashuvlarning semantik



reprezentatsiyasi:



3.2. “Meeting” konseptining ikkinchi darajali yadro leksemalarining ingliz publitsistik matnlarida semantik reprezentatsiyasi

The Guardian gazetasida “uchrashuv” konseptining birinchi darajali leksik komponentlari tahlil qilinib, kerakli natijalar olindi. Ikkinchi darajali komponentlarning tahlilidan oldin konseptning semantik-struktur komponentlarga taqsimlanishini bir marta ko’rib chiqish maqsadga muvofiq. To meet va meeting yadro leksemalari bundan oldingi bo’limda o’rganib natijalar olindi:

- met (o’tgan zamonda tushlangan);
- meet, meets (oddiy hozirgi zamonda tushlangan);
- buyruq shaklidagi formasi (imperative form)

O’tgan zamonda tushlangan “meet” fe’lining ingliz gazeta materiallaridagi semantik funksiyalari:

-ikki kishining (asosan sevishganlar va turmush qurganlar) ning tanishganlari;

-ikki yoki undan ortiq davlatlarning muzokara uchrashuvlarini o'tkazganliklari;

-muayyan shaxslarning biron noqonuniy, nojo'ya xatti-harakat ustida tutib olinganligini;

-yashirin til biriktirish uchun uchrashuvning tashkil qilinganligi;

-qarama-qarshi kuchlar, taraf bilan to'qnashuvning yuz berganligini ifodalashdan iborat.

Birinchi funksiyani tasdiqlashga imkon beradigan misolda Garri Salli bilan birinchi marta tanishganida degan ma'noni anglatadi, "met"ning ma'nosi birinchi marta tanishgan degan ma'noni bildiradi:

When Harry Met Sally 25 years on – quiz

July 5, 2014, the Guardian;

Turmush qurgan juftliklarning ham birinchi marta tanishganlarini ifoda qilish semantik funksiyasini bajarilgan misol :

I met my married hero – and he made a pass at me

November 7, 2014 y, the Guardian;

Ikki va undan ortiq davlatlarning o'zaro muzokara uchrashuvlarni tashkil qilinganliklarini ifoda etadigan misolda ham mamlakat prezidentlarining ismi keltirilmasdan bevosita davlat nomlarining o'zigina keltirilgan:

When China Met Africa, directed by Marc and Nick Francis, follows various Chinese enterprises underway in Zambia – from large-scale roadbuilding to small-scale crop-growing – and underscores the uneasy relationship between the two.

April 30, 2014 y, the Guardian;

Muayyan shaxslarning biron noqonuniy, nojo'ya xatti-harakat ustida tutib olinganligini ham aks ettirish funksiyasini bajaradigan "met" quyidagi misolda ham Angliya ministrlarining senat vakillarini qiynoqqa olib so'roq qilish, soxta hujjatlar tayyorlash ustida ushlab olganlari ko'rsatilgan:

UK ministers met Senate committee during torture inquiry, papers reveal

December 12, 2014 y, the Guardian

Shuningdek, to meet fe'lining o'tgan zamonda tuslangan fe'li qatnashgan maqola va boshqa gazeta materiallari o'rganilganda, yashirin til biriktirish ma'nosini anglatishi ham ma'lum bo'ldi. Quyida berilgan misolda ham qayd etilgan agentga Bin Laden bilan til biriktirich uchun uchrashganligi haqidagi ayb tuxmat qilinganligi ta'kidlangan:

CIA agent alleged to have met Bin Laden in July

November 1, 2001, the Guardian

Qarama-qarshi kuchlar, taraf bilan to'qnashuvning yuz berganligi ifodalangan ushbu misolda esa Fergussondagi Maykl Braunga qarshiliklar rezina o'qlar va ko'z yoshlantiruvchi gaz bilan to'qnashganligi haqida ma'lumot berilgan:

Michael Brown protests in Ferguson met with rubber bullets and teargas

August 14, 2014 y, the Guardian;

“To meet” fe'lining oddiy hozirgi zamonda tuslangan formasining gazeta materiallarida tahlil qilinishi natijasida quyidagi semantik funksiyalar amalga oshirilganligi aniqlandi:

-uchrashuv haqidagi reja;

-uchrashuvni amalga oshirishga va'da berilishi;

Birinchi funksiya ushbu misolda amalga oshirilgan bo'lib, bu yerda Vladimir Putin va Obama o'rtasida uchrashuv olib borilishi haqida reja mavjudligiga ishora qilingan:

Vladimir Putin and Barack Obama meet at D-day commemorations

June 6, 2014 y, the Guardian;

Mazkur misolda esa Bill Geytsning Maykrosoft ishqibozlari bilan bir yoki ikki oy ichida uchrashishga va'da berishi haqida xabar berilgan:

Bill Gates says he meets the Microsoft fans in a month or two

June 10, 2014 y, the Guardian;

“to meet” fe’lining buyruq shaklidagi formasi, ya’ni “meet” vositasida anglashilgan semantik ma’nolar:

-yangi ochilgan kashfiyot, biron yangilik bilan tanishishga undash;

-yangi ma’lumot haqida qiziqishga undash;

-muayyan materialda yoritilayotgan shaxs yoki guruh bilan tanishishga undash;

Yangi ochilgan kashfiyot, yangilik bilan tanishishga undov mana shu misolda yaqqol ko’rinib turadi. Bu yerda bitta yangi maxsulot bilan tanishib undan foydalangan mushtariyga keying seriyasi bilan tanishish tavsiya qilingan:

*If you've seen the brilliant musical **The Book of Mormon**, then **Meet the Mormons** (Channel 4) will ring a few bells*

June 27, 2014 y, the Guardian;

Gazetaning tegishli materialida yoritilayotgan ma’lumotning qisqacha anonsi sifatida ham asosiy fe’l bo’lib “meet” qo’llaniladi. Bu fe’lning qo’llanilishi vositasida ma’lumotga qiziqish uyg’otilib, batafsilroq tanishishga undaladi:

... Meet the global student. Students from around the world open up about what it's like to study in the UK


October 14, 2014 y, the Guardian;

Quyida berilgan misolda esa tegishli materialda yoritiladigan shaxs, Politsiya komissari haqidagi ma’lumotlar bilan batafsil tanishish tavsiya qilingan:

*The people who made mockumentaries **Twenty Twelve** and **W1A**, about the Olympics and the BBC respectively, have done another. Meet The Police Commissioner (Channel 4) it's called.*

May 30, 2014, the Guardian;

Uchrashuv konseptining the Guardian gazetasining 2013-2014 yilgi sonlaridagi materiallarda uchrashuv konseptining umumiy yadro leksemalari orqali semantik realizatsiyasi ustida statistik tahlil natijasi:



Diagrammada ko'rsatilganidek, "meeting" 167, council 120 o'rinlarda qo'llanilishi orqali eng ko'p, talks 67 ta o'rinda qo'llanilishi bilan o'rtacha, face toface 11, encounter 9 o'rinda ishlatilganligi sababli eng kam chastotaga ega deb baholandi.

3.3 O'zbek publitsistik matnlarida "uchrashuv" konseptining semantik reprezentatsiyasi

O'zbek publitsistik matnlarida (Xalq so'zi gazetasi misolida) "uchrashuv" konseptining yadro leksemalarining qo'llanilishi, ularning funksional, stilistik ahamiyati quyidagi tahlillarni taqozo qildi.

Misol uchun, mazkur misolda ikki kompaniya o'rtasida bo'lib o'tgan innovatsiya, yangiliklarga yo'naltirilgan uchrashuv anglashiladi:

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligida "TeliaSonera" kompaniyasi prezidenti L.Nyuberg bilan innovatsiyaga yo'naltirilgan uchrashuv bo'lib o'tdi, deyiladi

9 yanvar 2008 Xalq so'zi

Ushbu misolda ijodiy uchrashuv, ya'ni, qo'shiqchi, raqqosa, shoir va hk. kabi san'at vakillarining ijodi haqida suxbat boradigan uchrashuv turiga ishora qilingan:

Yayra Abdullayeva bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi, uchrashuv qatnashchilari suxbatdan katta ijobiy taassurotlar bilan qaytishdi.

04 Aprel, 2014 yil, Xalq so'zi

Quyidagi misolda esa yoshlar va qariyalar o'rtasida tomosha qilib, estetik zavq olishga mo'ljallangan tadbir ko'rinishidagi tadbir-uchrashuvi tashkil qilinganligi nazarda tutilgan:

Farg'onada "Nuroniylar va yosh avlod uchrashuvi" deb nomlangan tadbir-uchrashuvi bo'lib o'tdi.

30 dekabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Gazetadan olingan yana bir parchada qayd etilgan jarayonlarning ijobiy tarzda amalga oshishi uchun muntazam, ya'ni tez-tez takrorlanib turadigan doimiy uchrashuvlarning tashkil qilinishi haqida so'z boradi:

Jamoatchilik kengashi a'zolari, taniqli fan arboblari, ijodkorlar, madaniyat, sport sohasi vakillaridan iborat targ'ibot-tashviqot guruhlari tomonidan ham harbiy qism va muassasalarda, yurt tinchligini saqlash yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan harbiy xizmatchilar bilan mahallalar, korxonalar va ta'lim muassasalarida muntazam uchrashuvlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

27 dekabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Ma'lumki, hukumat boshqaruvi vakillarini saylov orqali tanlashdan oldin ularni tanishtiruv, ularga ovoz berishga tavsiya qilish chaqiruvlari, tashviqot uchrashuvlari tashkil qilinadi, bu misolda aynan shu haqida ma'lumot berilgan:

Saylovchilar siyosiy partiyalar va nomzodlarning dasturlari bilan yaxshi tanish. Ularning aytishicha, keng ko'lamli saylovoldi tashviqoti — OAVda maqolalar, teledebatlar, saylovchilar bilan tashviqot-uchrashuvlari tashkil etilishi tanlov masalasini hal qilishga sezilarli ta'sir o'tkazgan.

24 dekabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Ikki davlat, ikki kompaniya o'rtasidagi ikki taraflarning o'zaro uchrashuvlari haqida xabar berilgan :

Toshkent shahrida bo'ladigan ikki taraflama uchrashuvva muzokaralar chog'ida davlat rahbarlari O'zbekiston — Rossiya hamkorligining bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollarini muhokama qiladilar, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashadilar.

10 dekabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Mazkur misolda tegishli masalaga qiziquvchilar o'z hohishiga ko'ra qatnashishi mumkin bo'lgan anjumanga o'xshash uchrashuvning tashkil qilinganligi haqida xabar berilgan:

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashida “Sog'lom bola yili” Davlat dasturi doirasida respublika kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahliliga bag'ishlangan anjuman-uchrashuvi o'tkazildi.

31 dekabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Konferensiya ishtirokchilarining bir-biri bilan tanishib, tegishli mavzu yuzasidan fikr almashinishiga asoslangan uchrashuvga ishora qilingan quyidagi misolda ham Orol muammosiga bag'ishlangan konferensiya-uchrashuvi anglashilgan:

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Urganch shahrida 28-29 oktyabr' kunlari “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzusida xalqaro konferensiya-uchrashuvi bo'lib o'tdi.

30 oktyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Ikki mamlakatlarning o'rtasida suxbat mavzusi faqatgina rasmiy muhokamalarni taqozo qiladigan uchrashuv bo'lib o'tganligi quyidagi misolda qayd etilgan:

Avval xabar qilinganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 23-24 oktyabr kunlari ushbu mamlakatda rasmiy uchrashuvda bo'ldi.

25 oktyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Tashkil qilinadigan uchrashuv uchun talab qilinadigan har qanday mablag'larning tegishli tashkilot (BMT) tomonidan qoplanishi mo'ljallangan homiylik uchrashuvi quyidagi misolda qayd etilgan:

19-20 iyul. Toshkentda Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha "6+2" guruhining BMT homiyligidagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda tarixiy Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/1999>

O'zining yuqori ahamiyati, muhimligi bilan ajralib turadigan, jamiyatning yodidan chiqishi mumkin bo'lmagan, tarixda qoladigan uchrashuv turi esa ushbu misolda quyidagicha ifoda qilinadi:

O'zbekiston Respublikasining Qozog'istondagi favqulodda elchisining Qozog'iston Tashqi ishlari vaziri bilan muzokara suxbati tarixiy uchrashuv bo'lib qolishi shubhasiz.

20-dekabr, 2013 yil, Xalq so'zi

Suxbatning mohiyati asosan biznes faoliyatini samarali olib borish, sof daromad olish, mavjud muammolarga yechim haqida o'zaro fikr almashinishga asoslangan biznes uchrashuvi Asaka va GM kompaniyalari o'rtasida bo'lib o'tganligi haqida xabar qilinadi:

Asaka Avtomobil zavodining rivojlantirish markazi yetakchisi va General Motors kompaniyasi yetakchisi o'rtasida o'zaro biznes uchrashuvlar oxirgi olti oy ichda juda ko'p marotaba tashkil qilindi va o'z samarasini bermoqda

12 oktyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Uchrashuvda qatnashadigan tomonlarda o'zaro teng manfaatlar mavjud bo'lgan uchrashuv turi o'zaro manfaatli uchrashuv ekanligi, bu turdagi uchrashuv ham o'zbek gazetalarida asosan hamkorlik, xalqaro tadbirlar haqidagi gazeta materiallarida dominant ekanligi ma'lum bo'ldi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti o'zaro manfaatli uchrashuvda muzokaralar olib borishdi.

27 noyabr, 2014 yil, Xalq so'zi


Sport bellashuv-uchrashuvi ham o'zbek internet xabarlarini saytlari, ommabop va siyosiy turdagi gazetalarda ham juda ko'p uchraydi, ayniqsa futbol tematikasiga asoslangan maqolalarda ham dominant ekanligi aniqlandi:

Osiyo o'yinlari 2014 doirasida O'zbekiston va Bangladesh Olimpiya termalari o'rtasida sport-bellashuv uchrashuvi bo'lib o'tadi.


16 sentyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Uchrashuv konseptining yadro leksemasi sifatida "uchrashuv" konsepti Xalq so'zi gazetasida tahlil qilindi. Tahlil natijasida esa uchrashuv turlarining gazeta materiallariga asosan sxematik tasnifi ishlab chiqildi.

Birinchi tasnif gazetalarda "uchrashuv" konseptining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy masalalardagi komponentlariga asosan tuzildi:



Ikkinchi tasnif gazetalarda "uchrashuv" konseptining siyosiy masalalardagi komponentlariga asosan tuzildi:



Shuningdek, uchrashuv konseptining fe'l so'z turkumiga oid yadro leksemalari ham mavjud bo'lib, gazetalarda ular :

- ko'rishmoq;
- suxbatlashmoq;
- muzokara olib bormoq;
- tashrif buyurmoq ko'rinishlarda uchraydi.

Quyidagi misolda uchrashmoq yadro leksemasining bir qator kishilarning ko'rishib suxbat qurganliklarni anglatishi aniq bo'ladi:

Mamlakatimizda mehmon bo'lib turgan Indoneziya Xalq vakillari kengashi Spikeri Agung Laksono rahbarligidagi delegatsiya a'zolari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari bilan uchrashdi.

14.12.2007, Xalq so'zi

Quyidagi misolda esa mamlakatimiz rahbarining Xu Szintao bilan uchrashganligi haqidagi ma'lumot marosimda ishtirok etdi so'z birikmasi orqali ifoda qilingan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintaoning taklifiga binoan 8-9 avgust kunlari Pekin shahrida bo'lib, XXIX yozgi Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimida ishtirok etdi.

12-avgust, 2008, Xalq so'zi

Ushbu misolda esa mamlakatimiz rahbarining Butunxitoy xalq vakillari kengashi saroyida XXR raisi bilan uchrashganligi haqidagi ma'lumot “ko'rishdi” yadro leksemasi orqali xabar qilinadi: *Mamlakatimiz rahbari 9 avgust kuni Butunxitoy xalq vakillari kengashi saroyida XXR Raisi Xu Szintao bilan ko'rishdi.*

12-avgust, 2008, Xalq so'zi

Mazkur misolda mamlakatimiz Prezidenti taklif qilganiga ko'ra Rossiya Prezidenti bilan uchrashuvi “rasmiy tashrif buyurdi” fe'lli birikmasi, “uchrashuv” komponentining yadro leksemasi vositasida ma'lumot berilgan:

Avval xabar qilinganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 10 dekabr kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif buyurdi.

11-dekabr, 2014 yil, Xalq so'zi

O'zbekiston-Shveytsariya savdo-iqtisodiy aloqalarini tartibga solish maqsadidagi tashkil qilinanayotgan uchrashuvlar yig'ilish o'tkazmoqda birikmasi orqali ifoda qilinadi:

O'zbekiston-Shveytsariya savdo-iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan muhim mexanizm – Hukumatlararo komissiya faoliyati hisoblanadi. Ushbu tuzilmaning yig'ilishlari muntazam tarzda o'tkazilmoqda.

20-noyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

O'zbekiston-Shveytsariyaning yangicha maqsadli uchrashuvlar olib borishi “muloqot olib borishi” so'z birikmasi orqali aks ettirilgan:

Ushbu tashrif tomonlarning o'zaro ezgu irodasi hamda O'zbekiston-Shveytsariya davlatlararo muloqot olib borishini, yangi darajaga olib chiqishiga ishonch bor.

20-noyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

Qizlarning o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tgani "davra suxbati bo'lib o'tdi" so'z birikmasi orqali ifoda qilingan:


Zulfiyaxonim qizlari va mukofotni qo'lga kiritish orzusida bo'lgan yosh qizlar o'rtasida davra suxbati bo'lib o'tdi

30-noyabr, 2014 yil, Xalq so'zi

O'zbek gazetalarida, shu jumladan, Xalq so'zi gazetasida "uchrashuv" konseptining fe'l so'z turkumiga mansub yadro leksemalari quyidagi birliklar vositasida o'z semantik reprezentatsiyasini amalga oshiradi:

- uchrashdi;
- ko'rishdi;
- muzokara olib borishdi;
- davra suxbatini qurishdi;
- muloqot olib borishdi;
- yig'ilish o'tkazdi;
- rasmiy tashrif buyurdi;
- ishtirok etdi.

Statistik ma'lumotlar taqdim etiladigan bo'lsa, "uchrashuv" konseptining ot so'z turkumiga mansub yadro leksemalari vositasidagi semantik reprezentatsiyasi quyidagicha statistik tahlil qilindi. Ma'lumot Xalq so'zi gazetasining 2013 va 2014 yilgi barcha sonlaridagi materiallarda tahlil olib borish natijasida tuzib chiqildi



Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, Xalq so'zi gazetasining oxirgi ikki yillikda chiqqan sonlaridagi materiallarda yig'ilish 141, tadbir 135, anjuman 114 va davra suxbati 125 o'rinlarda qo'llanilganligi bilan eng yuqori, majlis 98, konferensiya 45 o'rinlarda qo'llanilishi bilan o'rtacha, muloqot 33, seminar 31, intervyu 11 o'rinda qo'llanilib eng past ko'rsatkichlarni tashkil qilgan.

Demak, ingliz va o'zbek gazetalarida uchrashuv konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasini taqqoslab quyidagilarni qayd qilish mumkin.

Ingliz gazetalarida (the Guardian) uchrashuvning turli-tuman turlari qo'llaniladi, ularning har biri kontekstual-stilistik xususiyatlarga ega, uzoq kutilgan, va'da qilingan, qolaversa "meeting konseptining har bir yadro leksemasi gazeta bajaradigan semantik funksiyalari mavjud.

O'zbek gazetalarida esa uchrashuv turlari cheklangan, shuningdek, ular turli kontekstual-stilistik xususiyatlarga ega emas, hamma kontekstlarda bir xil funksiya orqali qo'llaniladi.

Ingliz gazetalarida konseptning realizatsiyasi asosan uchrashuv turlari vositasida amalga oshsa, o'zbek gazetalarida bunday emas. Xalq so'zi gazetasida asosan, majlis, yig'in, seminar, muloqot kabi semantik ma'nosi tutash komponentlar vositasida realizatsiya sodir bo'ladi. Ijodiy uchrashuv, anjuman uchrashuvi kabi leksemalar esa juda kamdan-kam uchraydi. Ingliz tilidagi gazetalarda "visit, meets, met, encountered" kabi meeting konseptining fe'l so'z turkumiga oid komponentlari vositasida aktual realizatsiyasi amalga oshsa, o'zbek tilida aktual realizatsiya kamdan-kam hollarda "uchrashdi, ko'rishdi", juda ko'p hollarda "muloqot olib bordi, muzokara olib borildi, uchrashuvda qatnashdi" kabi kontekstual sinonimik komponentlar orqali realizatsiya sodir bo'ladi.

III BOB BO'YICHA XULOSA

Ingliz publitsistik matnlarida “meeting” konsepti to meet fe’li, meeting (ot so’z turkumiga mansub), met (o’tgan zamonda tushlangan), meet, meets (oddiy hozirgi zamonda tushlangan), buyruq shaklidagi formasi (imperative form)ga ko’ra ingliz gazetalarida semantik reprezentatsiya va realizatsiyasi bo’yicha tahlil qilindi. Tahlil natijasida “to meet” fe’lining gazetada qo’llanilishi orqali vaqti oldindan belgilangan sport uchrashuvining sodir bo’lishi, oldindan belgilangan muhokamaning tashkil qilinishi, gazetada muayyan sahifa qahramoni bilan intervyu-uchrashuvi uchun sarlavha sifatida mushtariylar bilan “ko’rishib turganidan hursand ekanligini ko’rsatish”, “masala, muammoning yechimi ustida qaror qabul qilinishi”, “uchrashuvining tashkil qilinish kerakligi”, “uchrashish istagi”, “hohishni ifoda qilish” kabi semantik funksiyalar amalga oshiriladi.

Meeting konsept so’zi ham tahlil qilinganidan so’ng davlat-siyosiy masalalar bo’yicha uchrashuvlarning sxematik tasnifining reprezentatsiyasi bo’yicha: *first, face-to-face, emergency, trilateral, parliament committee, ice-breaking, cabinet meeting* turlari, ijtimoiy ommaviy masalalar bo’yicha uchrashuvlarning semantik reprezentatsiyasi: *stormy, official, inter-faith, high-level, much anticipated, board, climate, walking, emergency staff, civil service, public meeting*kabi sxematik tasnif ishlab chiqildi.

Shuningdek “meeting” konseptining ikkinchi darajali yadro leksemalaridan o’tgan zamonda tushlangan “meet” fe’lining ingliz gazeta materiallaridagi semantik funksiyalari ikki kishining (asosan sevishganlar va turmush qurganlar) ning tanishganlari, ikki yoki undan ortiq davlatlarning muzokara uchrashuvlarini o’tkazganliklari, muayyan shaxslarning biron noqonuniy, nojo’ya xatti-harakat ustida tutib olinganligini, yashirin til biriktirish uchun uchrashuvning tashkil qilinganligi, qarama-qarshi kuchlar, taraf bilan to’qnashuvning yuz berganligini ifodalashdan iborat.

Bundan tashqari “to meet” fe’lining buyruq shaklidagi formasi, ya’ni “meet” vositasida anglashilgan semantik ma’nolar yangi ochilgan kashfiyot, biron yangilik bilan tanishishga undash, yangi ma’lumot haqida qiziqishga undash,

muayyan materialda yoritilayotgan shaxs yoki guruh bilan tanishishga undashdan iborat. Uchrashuv konseptining “the Guardian” gazetasining 2013-2014 yilgi sonlaridagi materiallarda uchrashuv konseptining umumiy yadro leksemalari orqali semantik realizatsiyasi ustida statistik tahlil natijasiga ko’ra quyidagi faktlar olindi:

Meeting 167, council 120 o’rinlarda qo’llanilishi orqali eng ko’p, talks 67 ta o’rinda qo’llanilishi bilan o’rtacha, face toface 11, encounter 9 o’rinda ishlatilganligi sababli eng kam chastotaga ega deb baholandi.

Uchrashuv konseptining yadro leksemasi sifatida “uchrashuv” konsept so’zi Xalq so’zi gazetasida tahlil qilindi. Tahlil natijasida esa uchrashuv turlarining gazeta materiallariga asosan sxematik tasnifi ishlab chiqildi.

Birinchi tasnif gazetalarda “uchrashuv” konseptining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy masalalardagi komponentlariga asosan tuzildi: sport uchrashuvi, tarixiy uchrashuv, biznes, homiylik uchrashuvi, anjuman, konferensiya uchrashuvlari, muntazam uchrashuvlar, tadbir uchrashuvi, ijodiy uchrashuv, innovatsiyaga yo’naltirilgan uchrashuv;

Ikkinchi tasnif gazetalarda “uchrashuv” konseptining siyosiy masalalardagi komponentlariga asosan tuzildi: o’zaro manfaatli, tashviqot uchrashuvi, ikki taraflama, rasmiy uchrashuvlar.

Shuningdek, o’zbek publitsistik matnlarida uchrashuv konseptining fe’l so’z turkumiga oid yadro leksemalari ham mavjud bo’lib, gazetalarda ular ko’rishmoq, suxbatlashmoq, muzokara olib bormoq, tashrif buyurmoq ko’rinishlarda uchraydi.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra, “Xalq so’zi” gazetasining oxirgi ikki yillikda chiqqan sonlaridagi materiallarda yig’ilish 141, tadbir 135, anjuman 114 va davra suxbati 125 o’rinlarda qo’llanilganligi bilan eng yuqori, majlis 98, konferensiya 45 o’rinlarda qo’llanilishi bilan o’rtacha, muloqot 33, seminar 31, intervyu 11 o’rinda qo’llanilib eng past ko’rsatkichlarni tashkil qilgan.

Demak, ingliz va o’zbek publitsistik matnlarida uchrashuv konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasini taqqoslab quyidagilarni qayd qilish mumkin.

Ingliz publitsistik matnlarida (the Guardian) uchrashuvning turli-tuman turlari qo'llaniladi, ularning har biri kontekstual-stilistik xususiyatlarga ega, uzoq kutilgan, va'da qilingan va hk., qolaversa "meeting" konseptining har bir yadro leksemasi gazeta bajaradigan semantik funksiyalari mavjud.

O'zbek publitsistik matnlarida esa uchrashuv turlari cheklangan, shuningdek, ular turli kontekstual-stilistik xususiyatlarga ega emas, hamma kontekstlarda bir xil funksiya orqali qo'llaniladi.

Ingliz publitsistik matnlarida konseptning realizatsiyasi asosan uchrashuv turlari vositasida amalga oshsa, o'zbek gazetalarida bunday emas. Xalq so'zi gazetasida asosan, majlis, yig'in, seminar, muloqot kabi semantik ma'nosi tutash komponentlar vositasida realizatsiya sodir bo'ladi. Ijodiy uchrashuv, anjuman uchrashuvi kabi leksemalar esa juda kamdan-kam uchraydi. Ingliz tilidagi gazetalarda "visit, meets, met, encountered" kabi meeting konseptining fe'l so'z turkumiga oid komponentlari vositasida aktual realizatsiyasi amalga oshsa, o'zbek tilida aktual realizatsiya kamdan-kam hollarda "uchrashdi, ko'rishdi", juda ko'p hollarda "muloqot olib bordi, muzokara olib borildi, uchrashuvda qatnashdi" va kabi kontekstual sinonimik komponentlar orqali realizatsiya sodir bo'ladi.

XULOSA

“Uchrashuv” konseptining ingliz va o‘zbek tillarida etimologik xarakteristikasiga ko‘ra har ikki tildagi konseptning yadro leksemasi bir-biriga bog‘liq emas, lekin birlamchi va ikkilamchi ma‘nolari, aniq maqsadda ko‘rishish va tasodifan ko‘rishish ma‘nolari yuzasidan qisman o‘xshashlikka ega. “Meeting” konseptining fe‘l so‘z turkumiga mansub komponentlarining semantik maydonining yadrosi ingliz tilida oltita ekanligi ma‘lum bo‘ldi: *to see, to visit, to meet, to get introduced, to date va to come across*, fe‘l so‘z turkumiga mansub bu representantlar o‘rganilayotgan konseptning periferiya zonasini egallaydi. Konseptual belgilarni aniqlash uchun “tomeet” fe‘lining yaqin periferiyalarini ko‘zdan kechirilib, bu leksema uchta semaga ega ekanligi tasdiqlandi: Tanishmoq, Uchrashmoq, Uchratmoq (ko‘rishib qolmoq ma‘nosida).

Ingliz adabiyotida “uchrashuv” konseptining leksik-semantik representatsiyasini Sharlota Brontening “Jeyn Eyr” romanida o‘rganib tahlil qilish natijasida aniqlandi:

1) ingliz badiiy asarlarida *see, meet, meeting* kabi *meeting* konseptining leksik-semantik komponentlari asar mikro va makrovoqealarining mantiqiy uzluksizligini ta‘minlaydi; 2) *meeting* konseptining semantik-leksik komponentlari turli struktur elementlar bilan birikib kelib, konseptni verballashtirishi, *meeting* konsept so‘zi qo‘llanilgan sentensiyalarda *meeting* konsept so‘zi ma‘no urg‘usini olishi, va kontekstdan markaziy o‘rinni egallashi mumkin; 3) *meeting* konsepti badiiy asarlarda romantik, estetiklikni ta‘minlashda vosita rolini bajarishi *meeting* konseptining asosiy leksik-semantik, stilistik funksiyalaridir.

“Jeyn Eyr” romanida *meeting* konseptining semantik-leksik, kontekstual va funksional representatsiyasi bo‘yicha xulosa quyidagicha:

1) asarda *meeting* konsepti Jeyn Eyrning Rochester bilan uchrashuvdan ham hayajon, ham qo‘rquv, ham ishqiy istakni xis qilishini ifodalashi; 2) asarda *meeting* konseptining funksiyasi Jeyn Eyr bilan Rochesterning hurmat, romantika, sevgi to‘la uchrashuvlari, Jeyn Eyrning Rochesterning sobiq telba

xotini bilan ko'rishib qolishi haqidagi qo'rquvli o'ylar, ikkinchi va uchinchi darajali personajlarning uchrashuvlari, suxbatlarini implisit va eksplisit darajada aks ettirib, asarda mikro va makro voqealarning, sahnalarning va personajlarning vaqt, zamon me'yorlaridan o'zaro almashinish xodisalarini uzluksizligini ta'minlashdir. Bu esa asarda "meeting" konseptining semantik komponentlarining ingliz badiiy asarida adabiy me'yorlar ustuni vazifasini bajarishi aniqlanganligidan dalolat beradi.

Bu tasnifdan xulosa qilish mumkinki, uchrashuv konsepti romanda dominant rolni egallaydi. Negaki voqea-xodisalarning uzluksizligi, romandagi zamon, makon, personajlar va harakatlarning o'zgarib turishi meeting konseptining leksik-semantik komponentlari vositasida personajlarning muayyan zamon (vaqt), makon (joy, masalan kafe, uy), ma'lum harakat vaqtida (sayr qilish, yurish) va uchrashib qolishlari orqali boshqariladi.

Statistik hisoblash natijalariga ko'ra, uchrashuv konseptining yadro leksemalari orqali realizatsiyasi bilan bog'liq 55 xil kontekst, ya'ni sentensiyalar aniqlangan bo'lib, ulardan 14 tasini kutilmagan, 11 tasini yoqimli, 7 tasini tasodifiy, 6 tasini rejalashtirilgan hamda romantik, 5 tasini havotirli, 4 tasi birinchi uchrashuv, 3 tasi yuzma yuz, oxirgi va taqdir qilingan, 2 tasi orzudagi va majlis uchrashuvlaridan iborat. Demak, ingliz adabiyotining klassik na'munalaridan biri bo'lgan Jeyn Eyr romanida perosonajlar o'rtasida kutilmagan uchrashuvlar dominant bo'lib hisoblanadi.

Boshqa statistik hisob kitoblarga ko'ra, Jeyn Eyr romanida meeting konseptining yadro komponenti *see* fe'li romanda dominant bo'lib turibdi, u turli ko'rinishda, o'tgan, kelasi, hozirgi zamonda, modal fe'llar bilan birikib kelishi mumkin. *Meet* fe'li va *meeting* so'zi bir foizgina farq bilan ikkinchi o'rinda ustunlikni ushlab turibdi. Shuningdek, oltita sentensiya holatlarida *come to see*, *go to see* fe'lli birikmasi orqali, qolgan bitta sentensiyada esa *visit* fe'li orqali meeting konsepti romanda semantik reprezentatsiyaga uchragan. Shuningdek, Jeyn Eyr romanida shuningdek, "meeting" konseptining kommunikativ reprezentantlari salomlashuv va hayrlashish nutq etiket aktlari ichida *how are you*

Jami 6 ta o'rinda, *good morning* 3, *good evening* hamda *goodbye* ham 3, *hello*, *hi* esa bironta ham o'rinda ishlatilmagan.

Kecha va kunduz romanidagi *uchrashuv* konseptining reprezentantlari sifatida berilgan leksik-semantik birliklarning sxematik tasnifi: talvasali, hukumat uchrashuvi, ishratxonadagi uchrashuv, unutilmas, qaltis, xotiradagi uchrashuv, havotirli, manfaatli, birinchi uchrashuv.

Kommunikativ komponentlar *Xayr* so'zining dialogik nutqda qo'llanilishi eng ko'p uchraydigan holat bo'lib, u 19 tani, *salomlashish va xayrlashishni* kontekstual ifodalash esa, misol uchun "*qo'lini siltab ketdi, qo'l siqib qo'ydi va hk.*" 34 tani *assalomu alaykum* deyish holati 2 tani tashkil qiladi.

O'zbek adabiyotida uchrashuv konsepti semantik jihatdan *ko'rishmoq, bir-birini ko'rishga bormoq, suxbatlashmoq* kabi yadro leksema va semantik komponentlar vositasida verballashmaydi, balki implisit ravishda kontekstual ifodalanishi mumkin.

O'zbek adabiyotida *ko'rishdi, bir-birini ko'rdi, duch keldi* kabi uchrashuv konseptining leksik-semantik komponentlarining qo'llanilish holatlari juda kamdan kam hollarda uchraydi. Tanlangan tahlil manbaida esa umuman bu holatga duch kelinmadi. Ya'ni Kecha va Kunduz romani uchrashuv konsepti fe'l so'z turkumiga oid *uchrashmoq*, ot so'z turkumiga mansub *uchrashuv* konsept so'zi vositasida verballashgan. Shuningdek, *So'fi aminnikiga aytmasdan keldi, bostirib bordi, ... nikiga yo'l olditarzda uchrashuvga borishni* anglatuvchi kontekstual aktual ifodalarning qo'llanilishi adabiy urf hisoblanadi.

O'zbek adabiyotidan ingliz adabiyotidan farqli ravishda uchrashuv konseptining komponentlaridan oxirgi, romantik, taqdir qilingan, tasodifiy uchrashuv komponentlari aniqlanmadi, ingliz adabiyotida aniqlanmagan o'zbek adabiyotidagi komponentlar esa *o'zaro manfaatli, qaltis, ishratxonadagi, xotiradagi, unutilmas uchrashuv* komponentlari aniqlandi.

Salom va xayrlashuv aktlarning o'rniga etiket harakatlarining aktual va kontekstual ifodasi dominant ahamiyatga ega: *salom qildi, salomiga alik oldi,*

salom alik qildi, xayrlashdi, xayr-xo'sh qilib ketdi, ketishga ruxsat / ijozat so'radi, bizga endi ruxsat dedi va hk.

Uchrashuv konseptining semantik reprezentatsiyasi ingliz gazetalarida (the Guardian) analiz qilinib meeting konsept so'zi ham tahlil qilinganidan so'ng davlat-siyosiy masalalar bo'yicha uchrashuvlarning sxematik tasnifining reprezentatsiyasi bo'yicha: *first face-to-face, emergency, trilateral, parliament committee, ice-breaking, cabinet meeting* turlari, ijtimoiy ommaviy masalalar bo'yicha uchrashuvlarning semantik reprezentatsiyasi: *stormy, official, inter-faith, high-level, much anticipated, board, climate, walking, emergency staff, civil service, public meeting*kabi sxematik tasnif ishlab chiqildi. Uchrashuv konseptining the Guardian gazetasining 2013-2014 yilgi sonlaridagi materiallarda uchrashuv konseptining umumiy yadro leksemalari orqali semantik realizatsiyasi ustida statistik tahlil natijasiga ko'ra quyidagi faktlar olindi:

“Meeting” 167, council 120 o'rinlarda qo'llanilishi orqali eng ko'p, talks 67 ta o'rinda qo'llanilishi bilan o'rtacha, face toface 11, encounter 9 o'rinda ishlatilganligi sababli eng kam chastotaga ega deb baholandi.

O'zbek gazetolari (Xalq so'zi)da konsept tahlil qilinib, ikki xil sxematik tasnif ishlab chiqildi: 1)“uchrashuv” konseptining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy masalalardagi komponentlariga asosan tuzildi: sport uchrashuvi, tarixiy uchrashuv, biznes, homiylik uchrashuvi, anjuman, konferensiya uchrashuvlari, muntazam uchrashuvlar, tadbir uchrashuvi, ijodiy uchrashuv, innovatsiyaga yo'naltirilgan uchrashuv; 2)“uchrashuv” konseptining siyosiy masalalardagi komponentlariga asosan tuzildi: o'zaro manfaatli, tashviqot uchrashuvi, ikki taraflama, rasmiy uchrashuvlar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, “Xalq so'zi” gazetasining oxirgi ikki yillikda chiqqan sonlaridagi materiallarda yig'ilish 141, tadbir 135, anjuman 114 va davra suxbati 125 o'rinlarda qo'llanilganligi bilan eng yuqori, majlis 98, konferensiya 45 o'rinlarda qo'llanilishi bilan o'rtacha, muloqot 33, seminar 31, intervyu 11 o'rinda qo'llanilib eng past ko'rsatkichlarni tashkil qilgan.

Demak, ingliz va o'zbek gazetalarida uchrashuv konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasini taqqoslab quyidagilarni qayd qilish mumkin.

Ingliz gazetalarida (the Guardian) uchrashuvning turli-tuman turlari qo'llaniladi, ularning har biri kontekstual-stilistik xususiyatlarga ega, uzoq kutilgan, va'da qilingan, qolaversa "meeting" konseptining har bir yadro leksemasi gazeta bajaradigan semantik funksiyalari mavjud.

O'zbek gazetalarida esa uchrashuv turlari cheklangan, shuningdek, ular turli kontekstual-stilistik xususiyatlarga ega emas, hamma kontekstlarda bir xil funksiya orqali qo'llaniladi.

Ingliz gazetalarida konseptning realizatsiyasi asosan uchrashuv turlari vositasida amalga oshsa, o'zbek gazetalarida bunday emas. "Xalq so'zi" gazetasida asosan, majlis, yig'in, seminar, muloqot kabi semantik ma'nosi tutash komponentlar vositasida realizatsiya sodir bo'ladi. Ijodiy uchrashuv, anjuman uchrashuvi kabi leksemalar esa juda kamdan-kam uchraydi. Ingliz tilidagi gazetalarda "visit, meets, met, encountered" kabi meeting konseptining fe'l so'z turkumiga oid komponentlari vositasida aktual realizatsiyasi amalga oshsa, o'zbek tilida aktual realizatsiya kamdan-kam hollarda "uchrashdi, ko'rishdi", juda ko'p hollarda "muloqot olib bordi, muzokara olib borildi, uchrashuvda qatnashdi" kabi kontekstual sinonimik komponentlar orqali realizatsiya sodir bo'ladi.

Quyidagi qayd etilgan farq va o'xshash xususiyatlar ikki til bo'yicha tarjima ishlarini olib borishda samarali manbaadir. Chunki, o'zbek kitobxoniga ingliz tilidagi asarni yetkazishda o'zbek tilidagi me'yorlar, aksincha ingliz tiliga tarjimada esa ingliz tilidagi me'yorlar ko'rsatma vazifasini bajaradi. Natijalar tarjima matnini to'laqonli chiqishiga yordam beradi. Shuningdek, gazeta matnlarida analiz natijasida "meeting" komponentlari (meet, too meet, met va hk.lar)ning turli o'ziga xos ma'nolarda kelishi esa xattoki Macmillan, Oxford kabi lug'atlarda ham berilmagan ma'nolarning borligi aniqlandi. Bu esa ishning "meeting" mavzusi bo'yicha lug'atshunoslik, leksemalarning sistematik ifodasi orqali ingliz tilini o'qitish metodikasiga ham effektiv bog'liqligi borligini bildiradi.

Qolaversa, “meeting” konseptining gazeta matnlari, tanlangan badiiy asarlarda o’rganilishi ham tilshunoslik sohasidagi birinchi amalga oshirilgan keng tadqiqot ishidan biridir.

SUMMARY

According to etymological analysis, core lexemes of the concept “Uchrashuv” are not linked to each other in English and Uzbek languages, but the first and second semantic meanings are partly similar in connotation : to meet suddenly and to meet on the exact purpose. In English there are six cores in semantic field of the concept: *to see, to visit, to meet, to get introduced, to date and to come across*, these lexemes occupy periferic zone of the concept. In order to identify contextual signs, we looked through close peripheries of the verb “to meet”, this lexeme has 3 semes: Tanishmoq, Uchrashmoq, Uchratmoq (ko’rishib qolmoq ma’nosida).

Lexic-semantic representation of the concept “Uchrashuv” has been learned in the novel “Jane Eyre” by Charlotte Bronte:

1) in English literature lexic-semantik components of the concept *see, meet, meeting* provide logical connection of the micro and macro events of the novel; 2) semantic-lexic components of the concept *meeting* combines with different structural elements to verbalize the concept, to stress the meeting in all sentences where it is used, to give the concept the central role in all the novel plot; 3) concept *meeting* plays romantic and esthetic role;

Conclusions according to semantic-lexic, contextual, functional representation of the concept “meeting” in “Jane Eyre” are as follows:

1) the concept *meeting* represents feelings of emotion, fear, passion of Jane for Rochester in the novel; 2) function of the concept is to express love of Jane and Rochester full of romance, respect and love, fearful thoughts of Rochester about sudden meeting of Jane and his ex-insane wife, meeting of secondary characters, to express the talks implicitly and explicitly, to provide logical connection in the points where the time, place, actions and characters change roles in the novels between the micro and macro events;

Schematic classification of the concept components according to semantic representation of the concept “meeting” in “Jane Eyre” is as follows: *frightful*

meeting, desirous, public, face-to-face, last meeting, urgent, sudden, first, destined meeting, romantic, planned, pleasant, unexpected meeting.

The concept “meeting” occupies the dominant role in the novel, it helps to administrate all the events, characters through connection of micro and macro events.

Concerning statistic calculations, core lexemes of the concept are verbalized through the following semantic meanings: out of 55 contexts in which the concept meeting is realized, 14 contains unexpected, 11 pleasant, 7 sudden, 6 planned and romantic, 5 worrying, 2 dreamt and council meetings. It means, unexpected meetings of the characters are dominant in the novel *Jane Eyre*.

In other statistic calculations the core component *see* in Past, Present and other forms are dominant, the component *Meet* occupies medium position, *come to see, go to see* are used in six sentences, only one sentence has the use of the component *visit*. Among the speech acts, speech acts of meeting such as greeting and saying good-bye, *how are you* is used in 6, *good morning* in 3, *good evening* and *goodbye* also in 3, *hello, hi* in none of the sentences in all the novel.

Schematic classification of the lexic-semantic components given as representants of the concept Meeting in the Uzbek novel “*Kecha va kunduz*” is as follows: *talvasali, hukumat uchrashuvi, ishratxonadagi uchrashuv, unutilmas, qaltis, xotiradagi uchrashuv, havotirli, manfaatli, birinchi uchrashuv.*

The word *Xayr* is used most of all, in 19 positions, *saying hello and saying goodbye* is expressed through contextual use of the words “*ketishga ruxsat so’radi, bizga endi ruxsat endi*”. Expressing saying hello also is used by means of acts such as *asqo’lini siltab ketdi, qo’l siqib qo’ydi* and so on, this contains 34 positions, and *assalomu alaykum* consist of 2 positions.

Concept “Uchrashuv” in Uzbek literature semantically is not verbalised through *ko’rishmoq, bir-birini ko’rishga bormoq, suxbatlashmoq*. In Uzbek literature it is very seldom seen that situations of expressing meeting in actual posts by means of *ko’rishdi, bir-birini ko’rdi, duch keldi*. But in the Uzbek novel we chose there is not any situations of this type. The concept of “uchrashuv” in

Kecha va Kunduz is verbalised through use of the words *uchrashmoq and uchrashuv*. Besides, *So'fi aminnikiga aytmasdan keldi, bostirib bordi, ... nikiga yo'l oldi* and other contextual actual expressions are assumed as literary tradition.

Differently from English literature in English literature there is no components of the concept such as last, romantic, destined, sudden, in Uzbek literature there are components such as *o'zaro manfaatli, qaltis, ishratxonadagi, xotiradagi, unutilmas uchrashuv*.

Instead of saying hello and goodbye, it is a literary tradition of the authors to use actual contextual expressions: *salom qildi, salomiga alik oldi, salom alik qildi, xayrlashdi, xayr-xo'sh qilib ketdi, ketishga ruxsat / ijozat so'radi, bizga endi ruxsat dedi* and.

Semantic representation of the concept meeting has been analysed in English newspaper (the Guardian), schematic classification of representation in terms of state and political issues is: *first face-to-face, emergency, trilateral, parliament committee, ice-breaking, cabinet meeting*, semantic representation scheme in terms of social and public issues is: *stormy, official, inter-faith, high-level, much anticipated, board, climate, walking, emergency staff, civil service, public meeting*. All the circulations of the two years 2013-2014 of the Guardian have been learned on the representation of the concept meeting and we got the following statistic facts:

“Meeting” 167, council 120 positions is in the first place, talks in 67 positions gets the medium range, face to face in 11, encounter in 9 positions and they obtain the smallest proportion among all the semantic and lexic components in all the newspapers of Guardian between the two years.

In Uzbek newspapers (Khalq so'zi) two schemes of semantic representations have been worked out: 1) scheme in terms of social-economic and spiritual issues: *sport uchrashuvi, tarixiy uchrashuv, biznes, homiylik uchrashuvi, anjuman, konferensiya uchrashuvlari, muntazam uchrashuvlar, tadbir uchrashuvi, ijodiy uchrashuv, innovatsiyaga yo'naltirilgan uchrashuv*; 2) scheme

in terms of political issues of the concept “uchrashuv” : *o’zaro manfaatli, tashviqot uchrashuvi, ikki taraflama, rasmiy uchrashuvlar.*

According to statistic facts, all the circulations of the newspaper Khalq between 2013 and 2014 have been analyzed on the semantic representation of the concept, the component *yig’ilish* in 141, *tadbir* in 135, *anjuman* in 114 and *davra suxbati* in 125 positions are the highest volume components, *majlis* in 98, *konferensiya* in 45 positions gets the medium range, *muloqot* in 33, *seminar* in 31, *intervyu* in 11 positions gets the smallest proportion of use in Khalq so’zi edition.

Comparing lexic and semantic representation of the concept Uchrashuv in English and Uzbek newspapers the followings can be mentioned as conclusions:

In English newspapers there are different types of meetings with different contextual and stylistic features e.g. promised, long-expected meetings, each component representing the concept “meeting” accomplishes certain semantic functions in newspapers.

In Uzbek newspapers types of meetings are limited, and they don’t have contextual and stylistic features, they have the same functions in all contexts of newspaper materials.

Realization of the concept meeting in English newspapers mainly are accomplished through meeting types, in Uzbek newspapers it is different. In the newspaper Khalq suzi realization of the concept is fulfilled through the use of the components such as *majlis*, *yig’in*, *seminar*, *muloqot* and as you see they are semantically united. The lexemes indicating types of meetings such as *Ijodiy uchrashuv*, *anjuman uchrashuvi* are faced very seldom. As for the verb representants of the concept, actual realization is rarely accomplished through the use of lexemes “*uchrashdi, ko’rishdi*”, in many occasions “*muloqot olib bordi, muzokara olib borildi, uchrashuvda qatnashdi*” are applied as referent components of the concept “meeting”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. PQ-0875 sonli “Chet tillarini o’rganish tizimi yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” Prezident qarori.2012 yil 12-dekabr.
2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil netodlari va metodologiyasi. –T. Fan, 2007.
3. Mamatov E.A. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // O’zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. – Andijon, 2012.
4. Mirtojdiyev M. O’zbek tili semasiologiyasi. T. – 2010.
5. Muhammedova S. Kognitiv lingvistika: vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo’nalishlari // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. – Samarqand, 2010.
Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax. 2006.
5. Safarov.Sh Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax. 2006.
7. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. М., 1997.
8. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. М., 1999.
9. Верецагин Е. М. Об относительности мирской этической нормы // Логический анализ языка: Языки этики. М., 2000. с. 235–245.
10. Верецагин Е. М., Костомаров В. Г. В поисках новых путей развития лингвострановедения: концепция речеповеденческих тактик. М., 1999.
11. Воркачев С. Г. «Две доли» – две концепции счастья // Языковая личность: проблемы креативной семантики. Волгоград, 2000. С. 54–61.
12. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической

- парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. № 1. С. 64–72.
13. Воробьев В. В. Лингвокультурология (теория и методы). М., 1997.
 14. Гак В. Г. Языковые преобразования. М., 1998.
 15. Додонов Б. И. Эмоция как ценность. М., 1978.
 16. Дубинин И. И., Гуслякова Л. Г. Динамика обыденного сознания. М., 1995.
 17. Зализняк Анна А. Семантическая деривация в синхронии и диахронии: проект «Каталога семантических переходов» // Волгоград. 2001. № 2. С. 13–25.
 18. Карасик В. И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. Волгоград. 1996. С. 3–16.
 19. Карасик В. И. Религиозный дискурс // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики. Волгоград, 1999. С. 5
 20. Карасик В. И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности. М., 2000. С. 37-63.
 21. Карасик В. И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Volgograd, 2000. С. 5–20.
 - 22.. Карасик В. И. О категориях лингвокультурологии // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. Volgograd, 2001. С. 3–16.
 23. Карасик В. И., Шаховский В. И. Об оценочных пресуппозициях // Языковая личность: вербальное поведение. Volgograd, 1998. С. 3–13.

24. Колшанский Г. В. Объективная картина мира в познании и в языке. М., 1990.
25. Косой М. Г. Чувственный компонент в лексическом значении // Актуальные проблемы лингвистики в вузе и в школе. М., 1998. С. 10–16.
26. Костомаров В. Г., Бурвикова Н. Д. Современный русский язык и культурная память // Этнокультурная специфика речевой деятельности. М., 2000. С. 23–36.
27. Кубрякова Е. С. Краткий словарь когнитивных терминов. М., 1996.
28. Кузнецов А. М. Когнитология, «антропоцентризм», «языковая картина мира» и проблемы исследования лексической семантики // Этнокультурная специфика речевой деятельности. М., 2000. С. 8–22.
29. Лакофф Джю. Культурные концепты – Логический анализ языка. Культурные концепты. М., 1991.
30. Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификаторов // Когнитивные аспекты языка. М., 1988. С. 12–51.
31. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. М., 1975.
32. Маняхин А.В. Новое в когнитивной лингвистике: Мат-лы I Международной научной конференции «Изменяющаяся Россия: новые парадигмы и новые решения в лингвистике» (29–31 Август, 2006 г.). Кемерово, С. 63–71.
33. Маслова.М.А. Когнитивная лингвистика: учеб. пособие / В.А. Маслова.– Minsk., 2005.
34. Мигирин.М.В. Язык как система категорий отображения. – Кишинев, 1973.

35. Пименова.М.В Душа и дух: особенности концептуализации. – Кемерово, 2004.
36. Пименова.М.В. Особенности репрезентации концепта чувство в русской языковой картине мира / М.В. Пименова // Мир человека и мир языка: Коллективная монография. – Кемерово, 2003. – с. 58–120.
37. Пименова.М.В Антропоморфная парадигма признаков в структуре концепта Ум // «Лингвистика и межкультурная коммуникация», 2004, №2
38. Пименова.М.В Язык. Текст. Дискурс: Научный альманах Ставропольского отделения РАЛК / Stavropol, 2007.
39. Hewitt K. Understanding English Literature. – Oxford: Perspective Publications, 1997.
40. Bierwisch V., Kiefer F. Remarks on definition in natural language // Studies in syntax and semantics. Vol. 10. Dordrecht, 1969.
41. Dreyer J. The Penguin Dictionary of Psychology. Aylesbury, 1981.
42. Leherer A. Indeterminacy in semantic description // Glossa. Burnaby, 1970. Vol. 4, № 1. P. 87–110.
43. Tyler S. The said and unsaid: Mind, meaning and culture. NY-L.: Academic press, 1978.
44. Wierzbicka A. Lexicography and conceptual analysis. Ann Arbor: Karoma, 1985.

FOYDALANILGAN BADIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 Charlotte Bronte Jane Eyre. Pensilvania Davlat universiteti. 2003-2012.
- 2 Cho'lpon. Kecha va Kunduz". Birinchi kitob. Kecha. "Sharq" nashriyot matbaa konserning tahririyati. Toshkent – 2000.

FOYDALANILGAN LUG'ATLAR RO'YXATI

1. Аракин В.Д. Англо-русский словарь. – М., 1997.
2. Гальперин И.Р. Большой англо-русский словарь. – М., 1972.
3. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М. 1984.
4. Новый большой англо-русский словарь. – М., 1993.
5. Ожегов С.И. Словарь русского языка. –М., 2005.
6. Collins C. English Language Dictionary. –L., 1987.
7. Hornby A.S. Oxford Students Dictionary of Current English. – М., 1983.
8. Macmillan English dictionary.–L., 2004.
9. Muller V.K. English - Russian Dictionary. – М., 1997.
10. Oxford Wordpower Dictionary.–Oxford. 1963.
11. The Oxford - Duden Pictorial English Dictionary. – М., 1995.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI RO'YXATI

1. <http://www.merriam-webster.com/dictionary/meeting>
2. <http://dictionary.reference.com/browse/meeting>
3. <http://www.macmillandictionary.com/dictionary/british/meeting>
4. <http://www.thefreedictionary.com/meeting>
5. <http://www.philology.ru/linguistics/>
6. <http://www.macmillandictionary.com/browse/meeting>

7. <http://www.thesaurus.com/browse/meeting>
8. www.wikipedia.org
9. www.guardian.com
10. www.xalqsuzi.uz